

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

O‘zbek tilshunosligi kafedrası

Magistratura bo‘limi

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bitiruvchisi

Matsapayev Ikram Rustamovichning

MAGISTRLIK DISSERTASIYASI

**MAVZU: «Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida
dialektal frazeologizmlarining struktur-semantik
xususiyatlari (to‘rtko‘l-ellikqal’a shevasi materiallari
asosida)»**

Ilmiy rahbar:

**Yu.M. Ibragimov-professor,
filologiya fanlari doktori.**

Kafedra mudiri:

M.Xudayarova fil.f.n, dotsent

Nukus-2014

R E J A

KIRISH

1-BOB. DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLARNING SHAKLLANISH ASOSLARI VA TASNIFI

- 1.1. Dialektal frazeologizmlarning shakllanish asoslari.
- 1.2. Diniy tushunchalar doirasida shakllangan dialektal frazeologizmlar.
- 1.3. Dialektal frazeologizmlarning tasnifi masalasi.

2-BOB. DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK SHAKLLANISHI MASALALARI

- 2.1. Dialektal frazeologik ma'noning shakllanish jihatlari.

3-BOB. DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

- 3.1. Dialektal frazeologizmlarning leksik qayta shakllanishi.
- 3.2. Tilning rivojlanish bosqichida dialektal frazeologizmlar.
- 3.3 Dialektal frazeologizm tarkibidagi o'zlashma so'zlar.
- 3.4. Bir tematik guruhga kiruvchi so'zlarga almashtirish.
- 3.5. Kontaminatsiya hodisasi.
- 3.6. Hududiy yoki ijtimoiy o'ziga xosliklarni ifoda etish.
- 3.7. Dialektal frazeologik ellipsis.
- 3.8. Dialektal iboralarining semantik tabiati.

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

MUNDARIJA

Kirish.....	
1-bob. Dialektal frazeologizmlarning shakllanish asoslari va tasnifi.....	
1.1. Dialektal frazeologizmlarning shakllanish asoslari.....	
1.2. Diniy tushunchalar doirasida shakllangan dialektal frazeologizmlar.....	
1.3. Dialektal frazeologizmlarning tasnifi masalasi.....	
2-bob. Dialektal frazeologizmlarning semantik shakllanishi masalalari.....	
2.1.Dialektal frazeologik ma'noning shakllanish jihatlari.....	
3-bob. Dialektal frazeologizmlarning leksik-semantik va grammatik xususiyatlari.....	
3.1. Dialektal frazeologizmlarning leksik qayta shakllanishi.....	
3.2. Tilning rivojlanish bosqichida dialektal frazeologizmlar.....	
3.3 Dialektal frazeologizm tarkibidagi o'zlashma so'zlar.....	
3.4. Bir tematik guruhga kiruvchi so'zlarga almashtirish.....	
3.5. Kontaminatsiya hodisasi.....	
3.6. Hududiy yoki ijtimoiy o'ziga xosliklarni ifoda etish.....	
3.7. Dialektal frazeologik ellipsis.....	
3.8. Dialektal iboralarning semantik tabiati.....	
Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar.....	

TADQIQOTNING UMUMIY TASNIFI

Mavzuning dolzarbligi. Dialektal frazeologizmlarning ma'no tarkibi, ma'no taraqqiyoti, hosil bo'lish yo'llari kabilar o'z tadqiqotchilarini hanuzgacha kutmoqda¹. Shunday ekan, dialektal frazeologizmlarni monografik yo'sinda tadqiq etish esa tilshunosligimiz uchun muayyan ahamiyat kasb etadi.

Dialektal frazeologizmlarning shakllanishi murakkab kechadi. Hozirga qadar frazeologik shakllanish so'z yasallishining davomi sifatida tadqiq etilib, asosiy e'tibor so'z yasallishining xususiyatlariga qaratildi. Natijada frazeologik shakllanishning o'ziga xos vosita va usullari etarli darajada tadqiq etilmadi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning semantik, grammatik, uslubiyatiga oid kator ishlar mavjud. Lekin dialektal frazeologizmlarning shakllanishida lisoniy va nolisoniy omillar, ifodaviy va mazmun jihatidan qaror topishida so'zlarning o'rni, ma'noviy shakllanish qirralari, shakllanishning motivlovchi va derivatsiya asoslari, mavjud umumtil dialektal frazeologizmlari asosida yangi frazeologizmlar shakllanishida leksik va semantik xususiyatlari kabi masalalar hozirgi o'zbek shevashunosligining dolzarb muammolaridir.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Dialektal frazeologizmlarning shakllanishida lisoniy va nolisoniy omillar, mazmun jihatidan qaror topishida so'zlarning o'rni, motivlovchi va derivatsiya asoslari, va leksik va semantik xususiyatlarini tavsif etishdan iborat.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Dialektal frazeologizmlarning shakllanishida lisoniy va nolisoniy omillar va leksik-semantik xususiyatlari yuzasidan to'plangan materiallarni tavsif etish ham tekshirish obyekti, ham predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot usuli va uslublari. Ishda asosiy e'tibor dialektal frazeologizmning shakllanish jarayonini tavsifiy, qiyosiy tahlil etishga qaratiladi.

¹Hojiyev A., Begmatov E. Hozirgi o'zbek tili va uni o'rganishning aktual masalalari// O'zbek tili va adabiyoti, - 1992, B:5.

Tadqiqotning o‘rganilish darajasi. O‘zbek tilshunosligida frazeologiyaning nazariy masalalari dastlab 50-60 yillarda o‘rganila boshlanib, Sh.Raxmatullayevning nomzodlik tadqiqotida² frazeologizmlarning grammatik tabiati, doktorlik ishida³ esa lug‘aviy jihatlari o‘rganilgan.

Muhimi shuki, bu ishlarda frazeologizmlar lug‘aviy birlik sifatida o‘rganilishi zarur ekanligi asoslab berildi. Tadqiqotlarda bildirilgan fikr-mulohazalar va ulardan kelib chiqqan xulosalar frazeologizmlarni semantik, grammatik, stilistik jihatlardan o‘rganish imkoniyatlarini yaratdi. O‘zbek tilshunosligida o‘zbek yozuvchi va shoirlari asarlari frazeologizmlarni uslubiy o‘rganish ham yo‘lga qo‘yilganligini ta’kidlash lozim. Muayyan yutuqlar bilan birga, frazeologiyaning qator global jihatlari munozaraligicha qolmoqda. Chunonchi, hanuzgacha o‘zbek tilshunosligida dialektal frazeologizmlarning leksik-semantik shakllanishi masalasi o‘z yechimini kutmoqda. Adabiyotlar ro‘yxatiga qaralsin.

Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi. O‘zbek tilshunosligida dialektal frazeologizmlarning leksik-semantik shakllanishi ilk bor tavsifiy, qiyosiy-tarixiy usulda tadqiq etilmoqda.

- Qoraqalpog‘istondagi To‘rtko‘l, Ellikqal’a tumanlariga joylashgan o‘zbek shevalari vakillari nutqidan yig‘ilgan dialektal frazeologizmning leksik-semantik shakllanishi tahlil qilindi.

- frazeologizmlarni tadqiq etish yuzasidan mavjud fikr-qarashlarga munosabat bildirildi..

Amaliy ahamiyati. Tadqiqotda dialektal frazeologizmlarning leksik-semantik shakllanishi va tasnifi yuzasidan bildirilgan nazariy xulosalardan o‘zbek tili frazeologiyasi bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishda qo‘l keladi.

Qo‘llanilish sohasi. Mazkur tadqiqot materiallari va natijalari o‘zbek frazeologiyasi fani, uslubshunoslik, matn yaratish texnologiyasi, badiiy matn tahlili

² Raxmatullayev Sh. Osnovnie grammaticheskie osobennosti obraznix glagolnix frazeologicheskix yedinitsovremennogo uzbekskogo yazika. - Avtorefer.diss. ...kand. filol. nauk. - M., 1952.

³ Raxmatullayev Sh. Nekotorie voprosi uzbeksoy frazeologii. - Avtorefer.diss. ...d-ra filol. nauk. - Tashkent, 1966. s.; O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. - Toshkent: Fan.1966.

fanlari uchun umumo'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, kollejlari, Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish bo'yicha metodik qo'llanmalar, ko'rsatmalar yaratish jarayonida foydalanish tavsiya etiladi.

Ishning sinovdan o'tganlik darajasi. Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti «O'zbek tilshunosligi» kafedrasining ilmiy-metodik kengashida muhokama qilinib ochiq himoyaga tavsiya etildi.

Ishning tuzilishi va tarkibi. Kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

KIRISH

Mamlakatimizning istiqbolga erishishi o'zbek xalqining madaniy-ma'naviy hayotida ulkan ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Istiqbol tufayli milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda, xalqimizning ma'naviyati, madaniyati, axloqiy e'tiqodlari milliy ruh va mazmun bilan to'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov **«Xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda etuvchi vosita bo'lmish o'zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil hamda to'liq ro'yobga chiqarish»**⁴ davlat ishi ekanini ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, o'zbek tili sohasida ham milliy ruh va milliy imkoniyatlarni tiklash uchun harakat kuchaydi. So'nggi yillarda o'zbek tilini ilmiy tadqiq etishning qator yo'nalishlari rivojlandi. Bular orasida «tilga izchil yondoshish va funksional tahlil»⁵ yo'nalishlari alohida o'rin tutadi. Til va nutq bir hodisaning ikki tomoni sifatida belgilandi. Hozirgi bosqichda tillarning frazeologik majmuasini ilmiy o'rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Shunday tadqiqotlar natijasida frazeologiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida qaror topdi. Bu holat nutqda keng qo'llanilib kelayotgan frazeologizmlarni yanada chuqurroq ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi. Lekin so'zlar tilning barcha leksik, semantik, grammatik sathlarida keng o'rganilayotgan bo'lsa-da, frazeologizmlar, xususan, dialektal frazeologizmlar bu sathlarida har tomonlama o'rganildi, deya olmaymiz. Dialektal frazeologizmlarning ma'no tarkibi, ma'no taraqqiyoti, hosil bo'lish yo'llari kabilar o'z tadqiqotchilarini hanuzgacha kutmoqda⁶. Shunday ekan, dialektal frazeologizmlarni monografik yo'sinda tadqiq etish esa tilshunosligimiz uchun muayyan ahamiyat kasb etadi.

Dialektal frazeologizmlar ham tuzilishi, leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o'ziga xos shakllanish xususiyatiga ega bo'lgan

⁴Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, O'zbekiston, 1998, B:10.

⁵ G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'lam mazmuni, Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma- Toshkent: O'qituvchi. 1995, B:8.

⁶ Hojiyev A., Begmatov E. Hozirgi o'zbek tili va uni o'rganishning aktual masalalari// O'zbek tili va adabiyoti, - 1992, B:5.

til birligidir. Ular leksikadan yuqori, gapdan quyi sathda turadigan til hodisasi sifatida tilshunoslarning e'tiborini tortib kelmoqda.

Dialektal frazeologizmlarning shakllanishi murakkab kechadi. Hozirga qadar frazeologik shakllanish so'z yasallishining davomi sifatida tadqiq etilib, asosiy e'tibor so'z yasallishining xususiyatlariga qaratildi. Natijada frazeologik shakllanishning o'ziga xos vosita va usullari etarli darajada tadqiq etilmadi. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning semantik, grammatik, uslubiyatiga oid kator ishlar mavjud. Lekin dialektal frazeologizmlarning shakllanishida lisoniy va nolisoniy omillar, ifodaviy va mazmun jihatidan qaror topishida so'zlarning o'rni, ma'noviy shakllanish qirralari, shakllanishning motivlovchi va derivatsiya asoslari, mavjud umumtil dialektal frazeologizmlari asosida yangi frazeologizmlar shakllanishida leksik va semantik xususiyatlari kabi masalalar hozirgi o'zbek shevashunosligining dolzarb muammolaridir. Shunga ko'ra, mazkur tadqiqotda o'zbek tili to'rtko'l-ellikqal'a shevalaridan yig'ilgan frazeologizmlarning shakllanish tamoyillarini tadqiq etish asosiy maqsad qilib olindi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim deb topildi:

- dialektal frazeologizmlarning shakllanishining nazariy masalalari qonuniyatlari va tamoyillarini aniqlab olish;

- dialektal frazeologizmlar shakllanishining lisoniy va nolisoniy omillari, shakllanishning motivlovchi va derivatsiya asoslarini belgilash;

- dialektal frazeologizmlarning shakllanishida so'zlarning o'rni va shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash;

- dialektal frazeologizmlarni barqaror birikmalar, birikma terminlardan farqlash, frazeologizmlar tarkibidagi u yoki bu leksik-semantik va tematik guruhlarga tegishli faol so'zlarni tahlil qilish;

- dialektal frazeologizmlarning shakllanishida semantik omillar, frazeologik transpozitsiya va spontan ma'nolarning yuzaga kelish shartlarini belgilash, frazeologik ma'noni yuzaga keltiruvchi omillarni tadqiq qilish;

-dialektal frazeologizmlarning lisoniy va nolisoniy ehtiyoj asosida paydo bo'lish xususiyatlarini o'rganish;

- barkarorlashgan dialektal frazeologizmlarni leksik, grammatik va leksik-semantik o'zgarishlar asosida yangi frazeologizmlar shakllantirishning vosita va usullarini tadqiq etish;

Tilshunoslikda frazeologizmlar tilning boshqa sohalariga nisbatan bir qadar keiynroq o'rganilgan bo'lishiga qaramay, u o'z tekshirish obyekti, tadqiq etish yo'li va usullariga ega fan tarmoqlaridan biri sifatida shakllandi. Jahon tilshunosligida frazeologiyani u yoki bu jihatlarini nazariy va amaliy o'rganilib, uning turli qirralariga bag'ishlangan monografik kuzatishlar, dissertatsion ishlar, lug'atlar, ilmiy maqolalar⁷ yuzaga keldi. Frazeologizmlarni o'rganishning xilma-xil metodlari ham shakllandi. Bu esa tadqiq etish ishlarini yanada jadallashtirdi, ularni ilmiy-amaliy va sistem o'rganishga imkoniyat yaratdi.

⁷ Royzenzon L.I., Pekler M.A. Materiali k obshchey bibliografii po voprosam frazeologii //Voprosi frazeologii. - Tashkent, 1965.S.147-244; Royzenzon L.I., Bushuyts A.M., Royzenzon S.I. Bibliograficheskiy ukazatel literaturi po voprosam frazeologii. Vip.3. - Samarkand, 1974; Bushuy A.M. Bibliograficheskiy ukazatel po voprosam frazeologii. Vip 4-5. - Samarkand. 1976-1979.

B I R I N C H I B O B.

DIALEKTAL FRAZELOGIZMLARNING SHAKLLANISH ASOSLARI VA TASNIFI

Tilshunosligimizda yaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar⁸ o'zbek tili frazeologiyasining shakllanishi va taraqqiyotida katta rol o'ynaydi. Xususan, frazeologizmlarning u yoki bu muammolarini tadqiq etishga bag'ishlangan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, o'nlab monografiyalar, ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalari, frazeologik lug'atlar yuzaga keldi.

O'zbek tilshunosligida frazeologiyaning nazariy masalalari dastlab 50-60 yillarda o'rganila boshlanib, Sh.Raxmatullayevning nomzodlik tadqiqotida⁹ frazeologizmlarning grammatik tabiati, doktorlik ishida¹⁰ esa lug'aviy jihatlari o'rganilgan.

Muhimi shuki, bu ishlarda frazeologizmlar lug'aviy birlik sifatida o'rganilishi zarur ekanligi asoslab berildi. Tadqiqotlarda bildirilgan fikr-mulohazalar va ulardan kelib chiqqan xulosalar frazeologizmlarni semantik, grammatik, stilistik jihatlardan o'rganish imkoniyatlarini yaratdi. Tilshunos olimning keyingi yillarda yaratgan qator ilmiy ishlari¹¹ ham o'zbek frazeologiyasining rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Ammo keyingi yillarda frazeologizmlarni grammatik va semantik yo'nalishda o'rganish bir qadar sustlashib qolganligi ko'zga tashlanadi. Bu sohada sanoqli nomzodlik dissertatsiyalarini¹² hisobga olmaganda, frazeologizmlarning grammatik, semantik tabiatini tadqiq etuvchi ishlar deyarli yaratilmadi.

⁸ Berdiyev H., Yo'ldoshev B. O'zbek frazeologiyasiga doir bibliografik ko'rsatkich. -Samarqand, 1977.

⁹ Raxmatullayev Sh. Osnovnie grammaticheskie osobennosti obraznix glagolnix frazeologicheskix edinitov sovremennogo uzbekskogo yazika. - Avtorefer.diss. ...kand. filol. nauk. - M., 1952.

¹⁰ Raxmatullayev Sh. Nekotoroie voprosi uzbeksoy frazeologii. - Avtorefer.diss. ...d-ra filol. nauk. - Tashkent, 1966. s.; O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. - Toshkent: Fan.1966.

¹¹ Raxmatullayev Sh. Leksikologiya bilan frazeologiya //Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 1992, 49-186betlar; Shu muallif. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. - Toshkent, 1992; Shu muallif. O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi. - Toshkent, 1992.

¹² Rafiyev A.R. Strukturno-funksionalnie svoystva frazeologicheskix yedinitov uzbekskogo yazika. - Avtorefer. diss. ...kand. filol. nauk. - T.:1982; Hakimov Q. M. O'zbek tilida soda gap qolipli frazeologizmlarning zaruriy irkuvchanliklari. Filol.fan.nomz.diss. avtoref. -T.:1994.

O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarni uslubiy o'rganish ham yo'lga qo'yilganligini ta'kidlash lozim. O'zbek yozuvchi va shoirlari asarlari frazeologizmlarning uslubiy qo'llanish xususiyatlari ko'pgina nomzodlik dissertatsiyalarida¹³ o'z aksini topgan. Ammo bu tadqiqotlarda frazeologizmlarning uslubiy jihatlari, badiiy ijodkorlarning frazeologik uslubiyati va ularning frazeologizmlardan foydalanish mahorati batafsil yoritilgan emas.

Bu o'rinda B.Yo'ldoshevning doktorlik dissertatsiyasi¹⁴ ta'kidlangan kemtikni to'ldirdi. Mazkur doktorlik dissertatsiyada ilk bor frazeologizmlar funksional-uslubiy jihatdan sistem holatda o'rganilib, ularning funksional-uslubiy tavsifi, nutq jarayonidagi uzual va okkazional vazifalari, badiiy matndagi pragmatik imkoniyatlari kabi masalalar boy til materiallari asosida tadqiq etildi.

Muayyan yutuqlar bilan birga, frazeologiyaning qator global jihatlari munozaraligicha qolmoqda. Chunonchi, hanuzgacha barcha tilshunoslikda bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham frazeologiyaning o'rganish ko'lamini «tor» va «keng» ma'noda tushunish davom etmoqda. Keng ma'noda tushunuvchilar¹⁵ frazeologiya obyektiga yaxlit ko'chma ma'noli turg'un bog'lanmalar bilan birga barcha turg'un birikmalar, maqol, matal, aforizmlarni ham kiritishgan. So'nggi yillarda yuzaga kelgan qator ishlarda¹⁶ frazeologiya obyektini «tor» ma'noda tushunish an'anasi ko'zga tashlanadi.

Bizningcha, frazeologiyani «keng» ma'noda ham, «tor» ma'noda ham tushunish o'zini oqlay olmaydi. Frazeologiya bahsida frazeologizmlarning turli lisoniy xususiyatlarini o'rganish zarur. Frazeologizmlar esa tilning alohida birligi bo'lib, tuzilishiga ko'ra erkin bog'lanma yoki gapga teng; to'liq yoki qisman qayta

¹³Qarang: Bushuy A.M. Bibliograficheskiy ukazatel po voprosam frazeologii. Vip 4-5. - Samarkand. 1976-1979.

¹⁴ Yo'ldoshev B. Hozirgi o'zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funktsional-uslubiy xususiyatlari. . Filol.fan.doktorlik.diss. -T.:1993.

¹⁵ Muratov S.N. Ustoychivie slovosochetaniya v tyurkskix yazikax. - m., 1961, s.130; Pinxasov Ya.D. Hozirgi o'zbek adabiy tili. // Leksikologiya va frazeologiya.-Toshkent, 1969, 57-65betlar; Xusainov M. Frazeologiya prozi pisatel'nitsi Aydin.- Avtorefer.diss. ...kand. filol. nauk. Samarkand 1959.

¹⁶ Qarang: Isayev A. Somaticheskie frazeologizmi uzbekskogo yazika.- Avtorefer.diss. ...kand. filol. nauk.-Tashkent,1977.; Rafiyev A.R. Ko'rsatilgan diss. avtoreferati; Ruzikulova M. Idiomatika uzbekskogo yazika. Avtorefer.diss. ...kand. filol. nauk. - Samarkand 1966, Kaxxarova X. Frazeologiya Abdulli Kadiri. Avtorefer.diss. ...kand. filol. nauk.-Tashkent,1985.

shakllangan, obrazli, turg'un so'z brikmalarini o'z ichiga oladi. frazeologiya tarkibida o'rganilayotgan maqol, matal, aforizm, hikmatli so'z, topishmoklar esa alohida o'rganilishi lozim bo'lgan mavzulardir. Tilshunoslikda frazeologizmlarning boshqa til birliklaridan farqlanuvchi belgilarini aniqlashda xam turli xil qarashlar mavjud. Bu holat «frazeologik birlik» tushunchasining mohiyatini aniqlash, frazeologik obyektning chegaralarini to'la-to'kis belgilash imkoniyatini bermayotir. Darhaqiqat, frazeologizmlarning boshqa til birliklaridan farqlanuvchi belgilari bittagina emas, balki belgilar yig'indisidan iborat. Bular ichida etakchi belgilarni aniqlash lozim. Tadqiqotlar obrazlilik va semantik qayta shakllanish frazeologizmlar uchun etakchi belgilar ekanligini tasdiqlaydi. **«Frazeologik birlik bo'lish uchun so'zlarning turg'un birlashmasi obrazli ma'no, ko'chma ma'no anglatishi shart»¹⁷**. Shuning uchun ham frazeologizmlar, obrazli va ko'chma ma'no ifodalaydigan frazeologizmlarning semantik, struktural, funksional belgilariga ham ega ekanligini inkor etmaydi. Frazeologizmlarni o'rganish jarayonida bu kabi belgilar ham hisobga olinishi zarur.

O'zbek tilshunosligida ham frazeologizmlar anglatgan yaxlit ma'no bilan ular tarkibidagi so'zlar ifodalaydigan ma'nolar orasidagi munosabat asosida frazeologik butunlik, frazeologik qo'shilma, frazeologik chatishma kabi turlarga ajratiladi. Albatta, bu tasniflashning nazariy ahamiyatini e'tirof etish bilan birga, tasniflashning tamoyillari va amaliy zaruriyatini asoslash lozimga o'xshaydi.

Bu leksik-semantik tasnif darslik va qo'llanmalarda turlicha. Jumladan, ayrim qo'llanmalarda qayd etilgan uch guruhdan¹⁸ iboratligi ta'kidlansa, boshqalarida ikki guruhga¹⁹ ajratiladi. Ayrim darslik va tadqiqotlarda²⁰ bu tasnif umuman inkor etiladi. Ma'lumki, frazeologizmlarning ma'nosi tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolar asosida izohlanishi va izohlanmasligiga ko'ra, frazeologik butunlik va frazeologik

¹⁷ Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. - Toshkent, 1992

¹⁸ Sodiqov A., Irisqulov M., Abduazizov A. Tilshunoslikka kirish.-T.1981, 108-110 betlar; Mirzaev M., Usmanov S., Rasulov I. O'zbek tili.-T. 1978, 44-48 betlar; Asqarova M., Abdurahmanov X. O'zbek tili grammatikasining praktikumi.-T.1981.46-47 betlar.

¹⁹ Tursunov U., Muxtorov J., Raxmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T, 1992, 74-79betlar.

²⁰ Hojiyev A. Frazeologiya// Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism, Toshkent, 1980, 142bet

chatishma kabi tasniflanadi²¹. Avvalo, frazeologizmlarning ma'nosi tarkibidagi so'zlarga xos ma'nolar asosida izohlanmaydi. Erkin bog'lanmaga xos ma'no frazeologizmlashtirilishi asosida yangi ma'no yuzaga keladi. Chunonchi, «*bəl baylamaq*» birikmasi erkin bog'lanma tarzidagina ularni tashkil etgan «*bəl*» va «*baylamaq*» so'zlarining o'zaro ma'noviy birikuvidan, «*kiyimning belini bog'lash bilan bog'liq harakatni*» ifodalovchi ma'no kasb etadi. Faqat birlamchi ma'no so'zlarga xos ma'nolar asosida izohlanadigan ma'no bo'ladi. Bu erkin bog'lanma frazeologizmlashtirilgandan keyingi esa, erkin bog'lanmaga xos ma'no butunlay o'zgarib, tarkibidagi so'zlarga xos bo'lmagan «*astoydil ishga kirishmoq*» ma'nosi shakllanadi. Shuning uchun ham frazeologizmlarni so'zlarga xos ma'nolar asosida izohlanadigan va izohlanmaydigan kabi tasniflash, bizningcha, o'zini oqlamaydi.

Avvalo, erkin bog'lanma va shu asosda shakllangan frazeologizmni obraz bog'lab turadi. Obrazlilik shakllangan frazeologizm uchun motivlovchi (mantiqiy) asos bo'lib, erkin bog'lanma orasidagi bog'lanishni saqlab turuvchi mezondir. «*Bel baylamaq*» erkin bog'lanmasining obrazi shakllangan frazeologizm da namoyon bo'ladi. «*Boshini olib chiqib getmək*», «*ayaqını əlinə ap*», «*əpkəsin qoltıqlap*», «*postınıın dəris giyip*», «*əlin yuvub, qoltıqına urıb*» kabi birikmalarda ham erkin bog'lanma va frazeologizm orasidagi bog'liqlikni obraz belgilaydi.

Frazeologizmlarning tuzilishi, semantik, funksional-uslubiy jihatlari murakkab bo'lganligi uchun ham o'ziga xos shakllanishga ega. Qator tilshunoslar (V.V.Vinogradov, A.V.Kunin, Yu.A.Gvozdev, A.G.Nazaryan, Sh.Raxmatullayev va b.) ning tadqiqotlaridan frazeologiyada yangi ilmiy tekshirish sohasi yuzaga kelayotganligi ayon bo'lib bormoqda. Bu frazeologik shakllanish (***frazoobrazovaniya***) masalasidir. ***Frazeologik shakllanish til unsurlarining, xususan, ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro uyushib, yangi til birligini yuzaga keltirish jarayonidir.***

Frazeologizmlarning tarkibiy va ma'noviy shakllanishi leksikaga nisbatan murakkab kechadi. Turkiyshunoslikda, jumladan, o'zbek tilshunosligida

²¹ Tursunov U., Muxtorov J., Raxmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili.-T, 1992, 74-79betlar.

frazeologizmlar «**soʻzga muqobil**» nazariyasi asosida oʻrganildi. Bunga koʻra, soʻzlar va frazeologizmlar oʻzaro vazifadosh, narsa, predmet, hodisalarni nomlaydi kabi nazariyalarga amal qilindi. Shundan kelib chiqib, frazeologizmlar soʻzlarning alohida shakli sifatida leksikologiyada oʻrganildi. Bu bir tomondan toʻgʻri, ikkinchi tomondan, shartlidir. Toʻgʻriligi shundaki, frazeologizmlarning vazifaviy xususiyatlari soʻzlarga oʻxshaydi, shartliligi shundaki, frazeologizmlar murakkab til birligi boʻlganligidan soʻzlardek tadqiq etish frazeologizmlar uchun kifoya qilmaydi. **«Frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun planining oʻziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga koʻra, frazeologik birliklar alohida yondashishni, oʻrganishni talab qiladi»²²**. Bu hol, ayniqsa, dialektal frazeologizmlarning shakllanish jihatlarida ochiq-oydin namoyon boʻladi.

Oʻzbek tilshunosligida, jumladan, oʻzbek shevashunosligida ham frazeologik shakllanish masalalari yaxlit tizim sifatida oʻrganilmagan. Frazeologizmlarning shakllanish xususiyatlarini oʻrganishdan oldin, frazeologik shakllanish terminining huquqiy holati (statusi)ni belgilash lozim. ***Frazeologik shakllanish til vositalari yordamida frazeologizmlar hosil qilishning oʻziga xos xususiyatlari, qonuniyatlarini oʻrganadi.*** Frazeologik shakllanish bahsida frazeologizmlarning tuzilishi, lisoniy va nolisoniy omillari, shakllanishning vosita va usullari, qaysi til birligi asosida frazeologik birlik yuzaga keladi, qanday jarayon bu til birligining shakllanishiga sabab boʻladi va hosil boʻlgan frazeologizmlar tilning boshqa birliklari bilan qay munosabatda boʻladi kabi masalalar tahlil etiladi. Maqsad va vazifalarga koʻra, frazeologik shakllanish soʻz yasallishiga yaqin turadi. Soʻz yasallishida yangi soʻzlar, frazeologik shakllanishda esa yangi frazeologizmlar hosil qilish jarayoni oʻrganiladi. Soʻz yasallishining til qonuniyatlari tilshunoslikda nisbatan keng oʻrganilgan boʻlsa, frazeologik shakllanish qonuniyatlari, xususan, oʻzbek tilshunosligida hanuzgacha tadqiq etilmagan. Frazeologizmlarning tilda paydo boʻlish, ularning etimologik asoslarini aniqlash va tahlil qilish frazeologik shakllanish bahsida emas, balki frazeologik etimologiya bahsida amalga oshirish

²²Raxmatullayev Sh. Oʻzbek tilining frazeologik lugʻati. - Toshkent, 1992

lozim. Albatta, frazeologik etimologiya bilan frazeologik shakllanish bahslarining mushtarak tomonlari mavjud. Chunki, ishonchli etimologik tekshirishlardan keyingina frazeologik shakllanishning umumqonuniyatlari belgilanadi. Ammo ular orasida bir talay farqlar ham borligini e'tirof etish zarur.

Frazeologik shakllanish masalalari qator tilshunos olimlarning ishlarida o'z ifodasini topganlar, jumlasiga Yu.A.Gvozdayov, A.V.Kunin, G.G.Sokolova, A.G.Nazaryanlarning asarlarini²³ kiritish mumkin. Ayrim nomzodlik dissertatsiyalari va ilmiy maqolalardagi yo'l-yo'lakay aytilgan qaydlarni hisobga olmaganida, o'zbek tilshunosligida frazeologik shakllanish masalalari deyarli yoritilmagan.

A.Shomaqsudov frazeologik fondning boyish manbalari:

1. Jonli xalq so'zlashuv tili;
2. Kitobiy-adabiy uslub birikmalari;
3. Boshqa tillardan o'zlashgan iboralar²⁴

deb ko'rsatadi. Ammo frazeologik shakllanish faqat lisoniy omillar bilan emas, balki til egalarining ijtimoiy-siyosiy hayoti, dunyoqarashlari, urf-odatlar, tarixi, madaniyati kabi nolisoniy omillar bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Shuning uchun ishning kirish qismida frazeologik shakllanishning derivatsiya va motivlovchi asoslari belgilandi, frazeologik shakllanishning semantik omillariga munosabat bildirildi.

V.Vinogradovning «frazeologizmlar til elementlarining kombinatsiyalaridir va o'ziga xos yaxlit semantik xususiyatga ega bo'lgan kommunikativ birlik»²⁵ degan fikrga asoslanib, Qoraqalpog'istondagi o'zbek tili to'rtko'l-ellikqal'a shevalari frazeologizmlarining komponent tarkibi ko'zdan kiyechirildi va faol so'zlar aniqlandi. Chunki dialektal frazeologizmlarning tarkibiy shakllanishi

²³ Qarang: Gvozdayev Yu.A. Osnovi russkogo frazeologizma.-Rostov-na-Donu, 1977; Kunin A.V. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazika.-M., 1987; Nazaryan A.G. Frazeologiya sovremennogo frantsuzskogo yazika.-M., 1976, 237-240s.; Sokolova G.G. Frazeologizmy vo frantsuzskom yazike.-M., 1987.

²⁴ Shomaqsudov A. Muqimiy satirasining tili.-T, 1970, 62-95betlar.

²⁵ Vinogradov V.V. Izbrannye trudy. Issledovaniya po russkoy grammatike.-M.1975.S.88-154

tilning grammatik qurilishi va soʻzlarning distributiv aloqalari, ularning bogʻlashuv qonuniyatlariga asoslanadi.

Oʻzbek dialektal frazeologiyasining koʻpgina jihatlari tilshunos olimlarnin eʼtiboridan chetda qolayotganligini ham taʼkidlash lozim. Jumladan, dialektal frazeologik semantik bogʻlashuv, ideografik semalar tahlili, frazeologizmlarni diaxron planda tadqiq qilish, frazeologik etimologiya, frazeologik stilistika, turli tillar dialektal frazeologizmlarini qiyosiy oʻrganish kabi masalalar xususida chuqur ilmiy monografik ishlar olib borilishi zarur. Oʻzbek tilining dialektal frazeologik qatlamlarini belgilash, nutq jarayonidagi oʻziga xos qoʻllanish xususiyatlari, frazeologizmlar oʻzlashtirish kabi masalalar ham tilshunolar eʼtiborida boʻlishi kerak. Shuningdek, «xalq tili frazeologiyasi, oʻzbek folklori frazeologiyasi, badiiy asarlar tilida dialektal frazeologizmlarning ishlatilishi hali tadqiq etilganicha yoʻq».²⁶

Oʻzbek tili dialektal frazeologiyasining asoslarini belgilovchi ilmiy-nazariy qoʻllanma ham yaratish zarur. Oʻzbek shevalaridan tilimizning barcha frazeologik boyligini jamlovchi koʻp tomlik izohli lugʻatini tuzishni boshlab yuborish lozim. Amalga oshirilajak bu ishlar dialektal frazeologizmlarni nafaqat nazariy jihatdan balki amaliy jihatdan ham chuqur oʻrganish imkoniyatini yaratadi.

1.1. DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLARNING SHAKLLANISH ASOSLARI

Frazeologizmlar shakllanishining nolisoniy omillari, shakllanish doirasi, frazeologizmlarga xos obrazlarni aniqlash kabi masalalar tadqiq etilgan. Shuningdek, shakllanishning motivlovchi asoslari muayyan sohaga koʻra tasnif qilindi.

²⁶Begmatov E.A. Oʻzbek adabiy tilining leksik qatlamlari.-Toshkent, 1985, 15-b.

Frazeologizmlarning shakllanishi lisoniy va nolisoniy omillar bilan bog'liqdir. Ular, birinchidan, ijtimoiy hayot voqealari, ikkinchidan, lisoniy, ya'ni tilning grammatik qonun-qoidalari kabi omillar bilan uzviy aloqadordir. Shakllanish davrida frazeologizmlar ham leksika kabi tilning ichki qonuniyatlariga, fonetik, leksik-semantik talablariga bo'ysundiriladi.

Frazeologik manbalar favqulodda ko'pligi bilan ajralib turadi. Ularning qachon paydo bo'lganligini aniqlash mushkul, ammo shunisi ma'lumki, ular juda qadim zamonlarda paydo bo'lgan va xalq bilan yashab kelmoqda. U yoki bu frazeologizm ma'lum bir davrlarda paydo bo'ladi va o'sha davrning hayot tarzini aks ettiradi. Frazeologizmlarning til birligi sifatida murakkabligi frazeologizmlarga xos bo'lgan obrazlarni aniqlashtirishni taqozo etadi. Xususan, «*malaqayin asmana chыңыр:атыр*», «*ashyg'ы alchy galdi*», «*arpasyn xam ormaq*», «*quyruqy xorjunda*», «*namasyna oynamaq*», «*shatalaq atmaq*», «*qaqan qazyiqdiyin*» kabi frazeologizmlar o'zbek turmushidagi hayotiy voqelik va shu voqelikdan kelib chiquvchi obrazlardan iboratligi bilan tavsiflanadi.

Dialektal frazeologizmlarning shakllanishi dialektal so'zlarning shakllanishidan bir qadar farqlanadi. Ularning shakllanishi turli davrlarda va har xil ijtimoiy-hayotiy tajribalarning umumlashuvi asosida ro'y beradi. Dialektal frazeologizmlar ham ma'lum bir obraz asosiga quriladi va shu obrazni gavdalantirishda har xil predmet, voqea-hodisa, tasavvurlarning nomlaridan foydalaniladi. Shuning uchun ham, «frazemalarni shakllanish doirasi jihatidan o'rganish alohida ahamiyatga ega».²⁷

Frazeologizmlar, asosan, shaxs tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, shaxsning biror tarzda tasavvuri, hatti-harakati, fiziologik hamda psixik holatlarini ifodalaydi. Shuningdek, frazeologizmlar hayvonlar obrazini gavdalantirish va muayyan kasb-korga bog'liqligi jihatidan ham shakllanadi. Dialektal frazeologizmlarni shakllanish ko'lami bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

²⁷ Raxmatullayev Sh. Leksikologiya bilan frazeologiya //Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 1992, 59-b.

1.1.1. SHAXS FAOLIYATI VA PSIXIKASI BILAN BOG'LIQLIGI JIHATIDAN SHAKLLANGAN DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLAR

Dialektal frazeologizmlar ham shaxsning psixik holati, his-hayojoni, ichki kyechinmalari, voqea-hodisalarga munosabatini obrazli, emotsional-ekspressiv ifodalash zaruriyati asosda shakllangan til hodisasidir. Ilmiy adabiyotlarda frazeologizmlarning ichki formasi (obraz) uning semantik tarkibida alohida rol o'ynashi ta'kidlanadi. Ichki forma deyilganda, frazeologizmga asos bo'lgan obraz yoki obrazli tasavvur tushuniladi. A.A.Potebnya **«ichki forma obrazlilikdir, boshqa belgilaridan ustun turuvchi belgidir»²⁸**, -deb ta'kidlagan. A.V.Kunin esa, **«frazeologizmlarning ichki formasi leksemalarning ichki formasiga nisbatan barqaror bo'ladi»²⁹**, -deb ko'rsatadi. Shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog'liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar asosida obrazli tasavvurlar yotadi. **«Leksika o'z majmuasida voqea-hodisalar, faktlar, jarayonlar, vaziyatlar nomini ifoda etsa, frazeologizmlar qayg'u, his-hayojon, tuyg'u, individlarning psixik holati, shaxsning sifatiiy ko'rinishlarini ifoda etadi»³⁰**. Bu doirada shakllangan frazeologizmlarni semantik tavsiflash, ularni ideografik semalar jihatidan tahlil etish bo'yicha qator tadqiqotlar³¹ olib borilgan. Bu ishlarda frazeologizmlarga emotsionallik va ekspressivlik nuqtai-nazardan yondoshib, ular semantik jihatdan sharhlanadi. Kuzatishlar psixologik holatini ifodalovchi dialektal frazeologizmlarning shakllanish jarayonini tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi. Bu doirada shakllangan frazeologizmlar tarkibida, ko'pincha ruhiy holatni ifodalovchi **ko'nil, uruh, səvinch, kəyf, həz, jan** kabi mavhum so'zlar semantik tayanch a'zo

²⁸ Potebnya A.A. Misl i yazik.-2-e izd.-Xarkov,1982, S.142.

²⁹ Kunin A.V. Ko'rsatilgan manba. S.143.

³⁰ Royenzon L.I., Avaliani Yu.Yu. Sovremennii aspekti izucheniya frazeologii //Problemi frazeologii izadachi ee izucheniya v visshey i sredney shkole.- Vologda, 1967.S.4.

³¹ Qarang: Avaliani Yu.Yu. Teksti leksii po komparativni-sopostavitel'noy frazeologii iranskix yazikov.-Samarkand, 1979; Shu muallif. K teorii semanticheskogo polya vo frazeologii//Voprosi frazeologii vip.14.-Samarkand.1981.S.4-15; Emirova A.M. Onomasiologicheskaya xarakteristika osnovnix semantiko-grammaticheskix razryadov sovremennoy frazeologii//Voprosi frazeologii russkogo yazika.-Samarkand, 1981.-S.46-52; Yarantsev R.I. Slovar-spravochnik po russkoy frazeologii.-M., 1981.

sifatida ishtirok etadi: «*pachaq-pacha:yn chыqarmaq*», «*djinina teymak*», «*vasvasag'a dyshmak*», «*vayima dyshmak*», «*achchyg'yny geltirmak*», «*meyasin azmak*», «*meyasin qaqmaq*», «*meyasin qaqyb alina barmak*», «*achchyg'yi galdi*», «*djini dutdy*», «*djini qarыshdy*», «*qa:ry galdi*», «*chызыpärt voldy*», «*iyig'i chыqdy*», «*djanы chыqdy*» shoshildi va b. Bu kabi frazeologizmlar tarkibida ishtirok etayotgan mavhum soʻzning mantiqiy asosiga tayanadi va ular spontan xarakterga ega boʻladi: Masalan, «*kəḥninən ətirmak*», «*kəḥni kətərildi*», «*kəḥni istədi*», «*kəḥni yarыshdy*» kabilar xotirjamlikni; «*kəḥni aynыdy*», «*kəḥninə syg'mady*», «*kəḥni qarang'yi*», «*kəḥni qaldy*», «*kəḥni xara voldy*» kabilar ruhiy g'amginlik, xafalik; «*kəḥnini darmaq*», «*kəḥninə qaramaq*», «*kəḥnin gətərmək :kəḥnin amaq*», «*kəḥnin achmaq*» kabilar istak xohishga mos tushadigan yoki harakat bilan oʻziga moyil qilish kabi psixik holatlarni ifodalashi bilan birga, ruhiy holatni ifodalovchi soʻzlarning mantiqiy asosiga koʻra shakllangan. Shaxsning his-hayojoni, fiziologik jarayonlari, turli-tuman va cheksizdir. Bu jarayonlarni ifodalovchi frazeologizmlarni frazo-semantik guruhlariga ajratib tadqiqi etilgan ishlar mavjud³². Ammo ular shaxs psixikasining barcha qirralarini qamrab olgan deyish qiyin. Shu ma'noda bu kabi tadqiqotlarni yanada davom ettirish zarur.

1.1.2.1. UY-RO'ZG'OR DOIRASIDA SHAKLLANGAN DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLAR

Shakllangan frazeologizmlar: a) birikmaga teng qurilishli boʻladi: «*meyasin qaqmaq*», «*savunyna ki:r yuvmaq*», «*samtyq bomaq*», «*chыrasyn yaqyb otyрмаq*», «*kərpəsinə qarab ayaq uzatmaq*» kabi; b) gapga teng qurilishli boʻladi: «*ichinə chыraq yaqyındiyin vomaq*», «*ichi:nə chыraq yaqsa yarыshmыdydy*», «*kasasy aqarmыdydy*», «*mag'zavasy chыqyp getdi*», «*ala xurjun arqasynan dyshmiydi*», «*boynyna qara qazan ilindi*» kabi.

³² Qarang: Mamatov A.E. Semantiko-stilisticheskie osobennosti emotsionalnoosnochnix frazeologicheskix edinitz uzbekskogo yazika. Avtor. diss. ...kand.filol.nauk:-Tashkent, 1988, 7-8b; Shu muallif: Frazeologik stilistika masalalari.-Toshkent, 1981. 37-69-betlar.

Dialektal frazeologizmlarning ma'lum qismi muayyan kasb egalarining faoliyati bilan bog'liq holda shakllanganligini lug'aviy materiallarimiz tasdiqlaydi. Turli kasb-korga bog'liq bo'lgan voqelikni obrazli gavdalantirish asosida dialektal frazeologizmlar shakllanadi va ular tilning xizmat doirasiga o'tadi. Sh.Raxmatullayev: «Frazemalarga nisbatan professionalizm haqida gapirish o'zini oqlamaydi. Chunki frazemaning shakllanishiyoq uning tor kasb-kor doirasidan chiqishini, umumlashuvini taqozo qiladi»,³³ - deb ta'kidlaydi. Shakllanish nuqtai-nazaridan qaraladigan bo'lsa, bunday frazeologizmlarning:

- mantiqiy asoslari erkin bog'lanmaga ega bo'ladi;
- erkin bog'lanmadan ma'nolari nuqtai-nazardan farqlanadi;
- tarkibidagi so'zlar o'z ma'no mustaqilligini to'liq saqlamaydi;
- har birining asosida muayyan kasb-korga aloqador obraz yotadi;
- erkin bog'lanma obraziga asoslanadigan umumlashma ma'no yuzaga keladi.

Turli kasb-korga bog'liqligi jihatidan paydo bo'lgan dialektal frazeologizmlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1.1.2.1. UY-RO'ZG'OR DOIRASIDA SHAKLLANGAN DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLAR

Bu frazeologizmlar kundalik turmushimizda qo'llaniladigan uy-ro'zg'or ishlarining mantiqiy asosidan kelib chiqib umumlashadi va umumtil miqyosida voqe bo'ladi. Shakllangan frazeologizmlar: a) birikmaga teng qurilishli bo'ladi: «meyəsin qaqmaq», «savunyna ki:r yuvmaq», «samtyq bomaq», «chyrasyn yaqyb otyрмаq», «kərpəsinə qarab ayaq uzatmaq» kabi; b) gapga teng qurilishli bo'ladi: «ichinə chyraq yaqyndiyin vomaq», «ichi:nə chyraq yaqsa yarışhtymydy», «kasasy aqarmydy», «mag'zavasy chyqyp getdi», «ala xurjun arqasynan dyshmiydi», «boynyna qara qazan ilindi» kabi. Bunday

³³ Raxmatullayev Sh. Leksikologiya bilan frazeologiya //Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 1992, 149-b.

frazelogizmlarning mantiqiy (motivatsion) asosini erkin bog‘lanma tarzidagi ishlarning nomi va shu voqelikni obrazli ifodalash tashkil etadi. Masalan, «*chapanyn qaqmaq- pöstəgin qaqmaq*» birikmasining «*ayovsiz tanqid qilmoq*» (O‘TFL) frazeologik ma’nosi uy-ro‘zg‘orga xos bo‘lgan voqelikni obrazli ifodalash asosida shakllanadi: Aslida po‘stakni qoqmoq uy-ro‘zg‘or buyumi «*po‘stakni changdan tozalash*» nazarda tutiladi. So‘ngra erkin bog‘lanmaning birlamchi ma’nosi orqa planga o‘tib, bog‘lanmaning shaxsga nisbatan qo‘llanilishi asosida yuzaga kelgan «*ayovsiz tanqid qilmoq*» (O‘TFL) ikkilamchi ma’nosi oldingi planga chiqadi. Bu yangi ma’no komponentlarining umumiy yig‘indisidan kelib chiqmay, ular asosida yuzaga kelgan ustama, ko‘chma ma’no sifatida shakllanadi.

1.1.2.2. PAZANDACHILIK DOIRASIDA SHAKLLANGAN DIALEKTAL FRAZELOGIZMLAR

O‘zbek tilining leksik tarkibida pazandachilikka oid so‘zlar o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Ta’kidlash joizki, pazandachilik bilan aloqador xilma-xil lisoniy assotsiatsiyalar shu kasb egalarining ish jarayoni muayyan obrazlarning shakllanishiga asos bo‘ladi. Masalan, «*zuvalasi pishik*» frazeologizmi xamir qorish bilan bog‘liq voqelikni obrazli ifodalash asosida shakllanadi. Ma’lumki, xamir sifatli qorilsa, xamirdan yasalgan zuvalalar pishiq bo‘ladi. Shu voqelik shaxsga nisbatan ishlatilib, «*azayı bədəni djuvıllap gətđi*» (O‘TFL) ko‘chma ma’nosi yuzaga kelgan. Bunda erkin bog‘lanmaga xos bo‘lgan ma’no konkretlikdan mavhumlikka siljish asosida frazeologik ma’no shakllanadi: «*chərəgi pytin*» Bu ibora o‘zbek adabiy tilida ham faol ishlatiladi. Masalan, **Eshonov tengqurlaridan zuvalasi pishiq chiqdi, garchi tabobat olamida hali ko‘p amaliy ish qilmagan bo‘lsa ham lop etib, tezda ko‘tarilib ketdi.** (N.YOqubov). Bu doirada shakllangan frazeologizmlar tuzilishi jihatidan birikmaga va gapga teng qurilishli, leksik-grammatik guruhlanishga ko‘ra ot, sifat, fe‘l, ravish frazeologizmlar bo‘ladi.

Masalan: a) birikmaga teng qurilishli; «qazani suva dashamaq», «qazan asmaq», «qıyırq qazannıñ qulaqın di:shlēmāk», «gynim uchu:n kēmāchimē kyl tartaman», «kenāsh ashı bērmāk», «bir zuvala xamir istasa, kulcha, istasa patir qilmoq», «tayyor asha chēmich samaq», «urvaq ham bomaslıq», « a:dı ullı,suprası qu:rı, odjag'ına ot qalamaq», «taxta oqlaqın yıg'ıshtırmaq» kabi; b) gapga teng qurilishli «qazani qapag'ı yarıg'lıq qaldı», «qazanı qaynap durubdı», «qazanı qaynatıydı», »mashı pishmiydi», «buvına zag'ara bishēdi: buvına nan pishēdi:buvına qaraqazan qaynıydı», «dēminē chay qaynıydı», «yopıqlıq qozon yopıqlıgıcha qoldı», «yag'ı chıqadımtı: mayı chıqatmtı?», «shorına shorva dēkildi» kabi fe'l frazeologizmlar, shuningdek, «dēsturxanı adjıq», «zuvalası pıshıq» kabi sifat frazeologizmlar; «xamırdan qıl sog'urg'andiyin yumshaq», «suva dıshēn sıchan yañlı» kabi ravish dialektal frazeologizmlar shakllanadi.

1.1.2.3. TIBBIYOT DOIRASIDA SHAKLLANGAN DIALEKTAL FRAZELOGIZMLAR

Ularning asosini tabobat jarayonidagi voqelikni ifodalovchi erkin obrazli ifodalash ehtiyoji asosida qator dialektal frazeologizmlar shakllanadi: «dērdinē dārman vomaq», «dērdinē əm dapmaq», «dērdi əñillāshmāk», «dērdi ag'ırlashmaq», «yarasın dırnamaq», «yarasın qashımaq», «yarasına duz sēpmāk», «chı:qanıñ ag'zın qoparmaq», «uaranıñ ag'zın qoparmaq» kabi birikmaga teng qurilishli; «yurēki qısbıldı», «meyāsınē qan quybıldı», «meyəsi chaqmtıydı», «kēlləsi ishlēmiydi», «dard ıstınē chı:pqan voldı», «yarasınıñ ag'zını qashıdı» kabi gapga teng qurilishli fe'l frazeologizmlar; «gözə da:rı», «kimē əm:kimē da:rı» kabi ot dialektal frazeologizmlar; «dērdi zor», «dērdi ag'ır», «dērdi qattıq», «dērdi yeñil:dērdi añsat», «nervi bosh :ırayı bosh», »qarı qattı» kabi sifat frazeologizmlar; «ısıtma (bezgak) tutandiyin», «dydanaqı dudıb», «dērd tutandiyin», «qanıda ba:», «dērdi kēp» «kēlləsi

qattı-bashı qattı», «*bashı aq'rımyıdy*», «*bashı aylanıb*» : «*dardı qozıb*» kabi ravish frazeologizmlar shular jumlasiga kiradi. Sh.Raxmatullayev «iboradan anglashiladigan ma'no nisbatan ikkilamchi ma'no bo'ladi»³⁴, -deb ko'rsatadi. Bu fikrni ushbu misol ham tasdiqlaydi: **sag' di:shıni sug'urıyb aladıla. «Sog' di:shıni sug'urıyb amaq»** dialektal frazeologizmlari nutqda erkin bog'lanma tarzda ham ishlatiladi. Bunda u og'rigan tishini emas, balki sog' tishini sug'urib olish jarayonidagi voqelik bilan bog'liq holatni ifoda etadi. Ana shu voqelikni obrazli gavdalantirish asosida «o'ziga o'zi tashvish orttirmoq» (O'TFL) frazeologik ma'no yuzaga keladi. Bu ma'no erkin bog'lanma ma'nosiga nisbatan ikkilamchi ma'no hisoblanadi.

1.1.2.4. DEHQONCHILIK DOIRASIDA SHAKLLANGAN DIALEKTAL FRAZELOGIZMLAR

Bu doirada shakllangan frazeologizmlar xilma-xil ma'noni ifodalash bilan bir qatorda tuzilishi jihatidan ham turli-tuman bo'ladi. Jumladan: a) birikmaga teng qurilishli «*arpasın xam ormaq*», «*yer achmaq*», «*yer haydamaq*», «*damarına balta urmaq*», «*tomiriga bolta urmoq*», «*mag'zın chaqmaq*», «*рыязың qavug'ıdiyin bomaq*», «*bag'dan gəlsə,dag'dan gələdi*», «*shaxın сындырмаq*», «*qavun dı:shırmək*», «*qovun tushurib shag'al dəkək*» kabi; b) gapga teng qurilishli «*bachılyıñ bag'ı gəkərməs,gəkərsəm me:və bərməs*», «*darax bir jayda gəkəradı*», «*daraxıñ bashın qurt yeydi*», «*siz aytan səvytlə kəsilib getgən*» kabi fe'l frazeologizmlar shakllanadi. Misollarda dehqonchilikda olib borilayotgan jarayonlarni obrazli ifodalash asosida frazeologizmlar cakllanayotganligi ayon bo'lmoqda. T.Z.Cherdenseva «**tildagi ko'plab erkin birikmalar o'ziga xos bo'lmagan tushuncha yoki voqea-hodisalarni ifodalay boshlaydiki, bu holat ko'plab frazeologizmlarning shakllanishiga sabab bo'ladi**»³⁵, -deb ifodalaydi.

³⁴ Raxmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki.-Toshkent, 1970, -47b.

³⁵ Cherdenseva T.Z. Yazik i ego obrazi. M.,1977,S32.

Masalan «qavun dyshirmək» erkin birikmasi qovunni tushirib yuborish, ehtiyotsizlik qilish holatini ifodalaydi. Ehtiyotsizlik tufayli qovunni tushirib yuborish tabiiyki, kishilarda salbiy emotsiyani yuzaga keltiradi. Mana shu voqelikni obrazli ifoda etish asosida «qavun dyshirmək», «qarmыз dyshirmək», «dynək dyshirmək» kabi sinonimlari mavjud bo‘lib, ularda erkin bog‘lanmaning «suhbat mavzusiga qovushmaydigan, noo‘rin gap-so‘z aytmoq» (O‘TFL) frazeologik ma‘nosi shakllanadi:

Tilimizdagi «xirman gətərmək» frazeologizmi ham dehqonchilik jarayonidagi voqelikni obrazli ifodalash asosida, uning «ekin-tikinni yig‘ib, hosil me‘yorini hisob-kitob qilmoq» (O‘TFL) frazeologik ma‘nosi shakllanadi. Shu bilan birga, bu doirada «bir qap medjənə», «yetti qavun pishig‘i», «altı qavun pishig‘i», «kəp qavun pishig‘i», «yzilməgən gyl», «bir shəhgil», «ikki shəhgil», «yərim shəhgil» kabi ot frazeologizmlar; «shaxında kishmish bolan», «on gylidən bir gylı achılmag‘an», «pochag‘ı mag‘zınan mazalı» singari sifat frazeologizmlar shakllangan.

1.1.2.5. CHORVACHILIK DOIRASIDA SHAKLLANGAN DIALEKTAL FRAZELOGIZMLAR

Shu sohaga xos bo‘lgan voqea-hodisalarning obrazli asosiga ko‘ra shakllanadi. Masalan, «quyushqannan chıqmaq», «zəhgisi yzilmək», «ayaqı zəhgisinən yzildi» frazeologizmi chorvachilikda qo‘llaniladigan voqelikni obrazli ifodalash asosida va shu voqelikni shaxsga nisbatan ishlatilish tufayli uning «mumkin bo‘lganidan ortiq narsaga botinmoq» (O‘TFL) «chegaradan chiqmoq» ma‘nosi shakllanadi. Xuddi shunday lisoniy omil asosida «quyushqoni dar gəldi» birikmasining «imkoniyatlari cheklanib, og‘ir ahvolga tushib qolmoq» (O‘TFL) frazeologik ma‘nosi shakllangan: adab.til. **Xotini xatni bermadi, «joning mening qo‘limda» degandek yashirib qo‘ydi, u sal quyushqondan chiqdi deguncha esiga soladi. (Shuhrat).**

Mazkur doirada barcha to‘rt leksik-grammatik guruhga tegishli frazeologizmlar shakllanadi: «*jilavyn dartyb qoymaq*», «*jilavyn bosh qoymaq*», «*jilavyn ələ amaq*», «*jilavyn əldən chыqarmaq*», «*djilavyn əldən qachырмаq*», «*jəjəni gyzdə sanamaq*», «*kəvish qaytarmaq*», «*alыnmag‘an ədjəkə qazыq qaqmaq*», «*tuvылmaqan ədjəkə yip amaq*» «*padadan alдын chaң chыqarmaq*», «*sag‘ыb ichmək*», «*chuv tushirmək*» kabi birikmaga teng qurilishli «*jilavы qolda*», «*quyruqы xurjunda*», «*qarg‘a uchmыyды*», «*hech zag‘ yoq*», «*padаны kim baqady?*» «*padadan burын chaң chыkarmaq*», «*papugi pəsəydi*», «*əshagi suvdan kechti*», «*qoyы miңə ətdi*», «*ayылы batды*», «*əshəginən tushag‘ы qo‘immata dyshdi*», «*dushavы kəsildi*» singari gapga teng qurilishli fe‘l frazeologizmlar; «*chымchaqa (jo‘jabirday) djan*», «*sag‘ын сығ‘ыр*», «*əmməmiң ədjəkındəyin*» kabi ot; «*eyərlanan atdiyin*», «*toqым təbiət*», «*molla minən əshəkdiyin*», «*qaqan qazыqdiyin*», «*qoy ag‘зыннан chəp amыyды*», «*ayылы məhkəm*» kabi sifat dialektal frazeologizmlar paydo bo‘lgan.

1.1.2.6. KASB-KORLIK DOIRASIDA SHAKLLANGAN DIALEKTAL FRAZELOGIZMLAR

O‘zbek tilida muayyan sharoitlar taqozosi bilan ayrim kasb-korlar, jumladan, kosiblik, tikuvchilik, to‘quvchilik, duradgorlik doirasida shakllangan dialektal frazeologizmlar, garchi kam miqdorda bo‘lsada, nutqda keng qo‘llanilib turadi.

Mazkur doirada shakllangan dialektal frazeologizmlarning asosini ma’lum kasb-kordan olingan voqelik va shu voqelikning obrazli ifodasi tashkil etadi. Masalan, «*arqаның udjыны dapmaq*», «*arqаның udjыны yoymaq*», «*bəchchiniң makыsыdiyin*» kabi fe‘l frazeologizmlar to‘quvchilik bilan bog‘liq voqelikni obrazli ifodalashi bilan ajralib turadi **Tikuvchilik bilan bog‘liq bo‘lgan voqelikni** obrazli gavdalantirish asosida «*boyына yarasha don dikmək*», «*astarын ag‘darmaq*», «*kiyib dashlamaq*», «*donын dəris kiyib amaq*», «*tonын əzgərtirmək*», «*naqыnan iynəsinədiyin*», «*kəshtəsi gəlishgən*», «*əң udjында*»,

«qondjynan ap qoltyqyna urmaq». «chapanı eynina ətmiydi», «chapanı di:zinə ətmiydi», «dınay əmirində bir chapanı ikav bomag'an» kabi dialektal frazeologizmlar shakllanadi:

Kosiblik doirasida ham nutqda qo'llanilib kelinayotgan «ag'zyna suv amaq», «yırtıqyna yammaq ,yzykinə qash volmaq», «yzykə qash qondırg'andiyin», «yapan nandiyin» «ag'zyna mum di:shlēmək», «bəchchiniñ makisidiyin» kabi frazeologizmlar shakllangan: Quyidagi frazeologizmlar esa **durdgarlik doirasida shakllandi:** «dəskəñ yıg'ıshıo'r», «chot deyməgən», «boyaqchıñ shilimindəyin», «kərvüch qalıpdan kəchən», «qaqan qazyqdiyin» kabilar shular jumlasiga kiradi.

1.1.2.7. MAKTAB-MAORIF DOIRASIDA SHAKLLANGAN DIALEKTAL FRAZELOGIZMLAR

Bularning miqdori unchalik ko'p emas. Bunday obrazli iboralar jumlasiga «alifni kaltak deyolmaslik», «alifni tayoq deyolmaslik», «madrasa gərməgən», «məktəb gərməgən», «saval dug'ıldıı», «sabaq bərmək», «sheytana savaq brmək» «sabaq almaq», «sabaq volmaq», «dars bomaq», «savadı chıqıyb qalmaq», «gəpiñ djəni», «gəpiñ dog'rısyı», «gəpiñ pos kəlləsi», «maktabdan qachqan djinnidiyin», «iyshannan qachan djinnidiy» singarilar kiradi.

1.1.2.8. MUSIQACHILIK DOIRASIDA SHAKLLANGAN DIALEKTAL FRAZELOGIZMLAR

Bu doirada birikmaga teng qurilishli fe'l frazeologizmlar shakllanadi: «nag'arasına oynamaq», «dombıra chərtmək», «dombıra chertib oynamaq», «toydan alдын surnay chərtmək» «dəp qaqqmaq», «childirmasina oynamaq», «bir pərdə pəs gəlmək», «bir pərdə bələnd gəlmək», «pərdəni yuqarıdan amaq» kabilar. Bu gapni aytgan kishiga hamma barobar o'girilib qaradi.

1.1.2.9. HAYVONLAR OBRAZI ASOSIDA SHAKLLANGAN DIALEKTAL FRAZELOGIZMLAR

O'zbek tilida qator frazeologizmlar hayvonlarning u yoki bu xususiyatlarini timsollashtirish asosida shakllangan. Hayvonlarning yurish turishi, o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra: tulki-ayyorlik va chaqqonlik; bo'ri-yirtqichlik va ochko'zlik; cho'chqa-ochko'zlik va ifloslik; ilon-makkorlik, hiylakorlik, razillik, qabihlik; ayiq-muruvvatlik, qo'pollik, beso'naqaylik; maymun-nomustaqillik, taqlid qilish; arslon- kuchlilik, muruvvatlik, oliyjanoblilik; qo'y-yuvvoshlik va nomustaqillik; chumoli-mehnatkashlik; eshak-ahmoqlik va qaysarlik; it-vafodorlik va h., ramziy belgisi sifatida talqin etiladi.

Hayvonlarning xalq tomonidan idrok etilgan umumiy xislatlarini timsollashtirish asosida o'zbek tili shevalarida ham asosan salbiy ma'noli frazeologizmlar shakllangan. Chunki hayvonlar timsoli inson tafakkurida aksariyat hollarda salbiylik bilan birikadi. Shuning uchun so'kish, qarg'ishni ifodalovchi so'z va so'z birikmalari tarkibida hayvonga oid so'zlar ko'p uchraydi. Masalan, kishining o'zining salbiy munosabatini bildirishda «*hayvon*», «*eshak*» deya xitob qiladi. **«Ichki forma, ya'ni obraz ma'noning dinamik komponenti bo'lib, bu komponent birinchi planga suriladi va ikkilamchi ma'no yuzaga keladi»³⁶.** Hayvonlar obrazi ham dialektal frazeologizmlar tarkibida muhim dinamik komponent bo'lib, frazeologik ma'noni shakllantiradi. Masalan, «it» sodiqlik, vafodorlik timosli sifatida «*iyt vafadar bolmaq*», «*iyt kynin kormak*», «*iytni kynin bashına samaq*», «*iyt qarakynligindætib gældim*», «*bashına iyt azabın samaq*» dialektal frazeologizmlari esa itning hayot tarzini inson hayotiga qiyoslash asosida paydo bo'lgan. «*iytdæn bir syyæk qarыз volыb yashamaq*», «*iyt qutыrsa eyæsin qapadы*», frazeologizmi esa o'ta kambag'al ahvolni obrazli ifodalash asosida shakllangan. «*iyt hurædi, kærvan ætædi*» frazeologizmi ham iytning salbiy, ya'ni bo'lar-

³⁶ Varina V.G. Leksicheskaya semantika i vnutrennaya forma yazikovix edinit //issledovaniy.-M., 1976. s.243.

bo'lmaga hurishi asosida yuzaga kelgan; «*iyt iykəsin, adam biykəsin danımadı*» juda ko'p, son-sanoqsiz degan ma'noni bildiradi.

O'zbek xalqining kundalik hayotida ot juda muhim rol o'ynagan. Shuning uchun ham yilqichilikka oid qator so'z va birikmalar o'zbek xalq ʻcevalarida keng qo'llaniladi³⁷. Masalan, «*atdan dıshshə həm uzəhgidən dıshmiydi*», «*atdan dıshə:əm, eyərdən dıshmədi*», «*ayag'ı uzəhgidə volmaq*», «*atıñ qashqasındaıyn belli*», «*atni qamchılamaq*», «*at salıb*», «*at bilən dıyəchəlli*», «*at qoymaq*» kabi dialektal frazeologizmlarda ot dinamik komponent sifatida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, dialektal frazeologizmlarning shakllanishida **ədjək** «*buzoq*», *bashmaq* «*tana*» so'zi ishtirokida «*əmməmiñ ədjəkidiyin*», «*əjəkiñ yıgırəni siysxanagachəlli*», «*ədjəkiñ haqıy*», «*namaqul əjəkiñ ətini epti*» kabi; «**qo'y**» so'zi ishtirokida «*qoıyı miñə ətibdi*», «*qoy ag'zınan chəp atıydy*», «*qoydiyin yıvash*», «*qoydyıyn musıpyır*» singari frazeologizmlar; «**eshək**» so'zi ishtirokida «*əshəkdəiyin ishlətmək*», «*ish bitənochəlli, əshək laydın ətənochəlli*», «*əshəgi laydın ətdi*», «*əshəki suvdan ətdi*», «*əshək semirsə əgəsini yiqıyıtady*» kabi frazeologizmlarning shakllanishiga mantiqiy asos bo'ladi.

Salbiy ma'no ifodalovchi dialektal frazeologizmlar yovvoyi yoki yirtqich hayvonlarini simvallashtirish hisobiga shakllangan. Masalan, ilonning salbiy belgi-xususiyatlariga ko'ra «*er təyində yılan qıymırlasa bilədi*». «*yılanıñ mayıynı ichən: yılanıñ yag'ın yalag'an*», «*yo'lan pos tashlıydy*», «*yılanıñ ayag'ın sanag'an*», «*yılandiyin tısi savuq*», «*yılanıñ ayag'ın kərən*» singari dialektal frazeologizmlar shakllanadi.

Faqat o'zbeklarda emas, balki boshqa xalqlarda ham bo'ri yirtqichlik ramzini ifodalab keladi. Shu sababli «bo'ri eb ketarmidi?!», «bo'ri eydimi», «bo'ri kelayapti», «bəriñ ag'zı yesəm, yeməsəm qan» kabi frazeologizmlar paydo bo'lgan. Frazeologizmlarning hosil bo'lishida asos rolini o'ynagan timsoliy obrazlar ko'pgina tillarda umumiyliги bilan xarakterlanadi. T.Z.Cherdanseva

³⁷Usmanov S. gippologicheskaya terminologiya sovremennogo uzbekskogo yazika. Avtoref.diss. ...kand. filol.nauk.- Tashkent, 1988.

hayvonlar nomlari obrazlari va ularni simvallashtirish turli tillarda umumiy yoki farqli bo'lishi³⁸ni ta'kidlaydi. Bu hol hayvonlar belgilarining bir xilligi va kishilar tomonidan bir xil qabul qilinishi bilan izohlanadi. Masalan, «itday vafodor bo'lmoq» frazeologizmi rus tilida «vernıy kak pes» fransuz tilida *fidele comme un chien* (itday vafodor) tarzida bir xil obraz asosida gavdalanadi. O'zbek tilidagi «tulkiday ayyor» frazeologizmi rus tilida «xitrıy kak lisa», fransuz tilida *malin comme un singe* (maymunday ayyor) tarzida ifodalanadi. Bunda o'zbek va rus tillarida ayyorlik ramzi sifatida tulki obrazi, fransuzlarda esa maymun ayyorlik belgisi sifatida gavdalanadi.

1.2. DINIY TUSHUNCHALAR DOIRASIDA SHAKLLANGAN DIALEKTAL FRAZELOGIZMLAR

Insonlar qadimdan dinga ishonib kelgan. Diniy rasm-rusumlarni bajo keltirish, xudoga ishonish, dinga sajda qilish kabi xususiyatlar, hatti-harakatlar asosida qator frazeologizmlar shakllanadi.

A). Xudo tushunchasi doirasida shakllangan dialektal frazeologizmlar.

Xudo «**olamni yaratgan va uni boshqaruvchi oliy zot**» (O'zTIL) ma'nosini ifodalaydi. Shuning uchun ham xudo eng oliylikni bildiradi. Xudo obrazi asosida ijobiy va salbiy ma'noli dialektal frazeologizmlar shakllangan: 1) ijobiy ma'noli «*azbarayı xuda*», «*əvəli xuda,qalaversə sən*», «*ya al, xuda, ya bər xuda deb*», «*xuda bərgən əkən*», «*xuda bərdi*», «*xudag'a shukur*», «*xuda yarlıqadı*», «*xuda saqlasın*», «*xuda xayıрын bərsin*», «*xuda ымrin bərsin*» kabi frazeologizmlar; 2) salbiy ma'noli: «*xuda kətərsin*», «*xuda ko'p kərđi*», «*xuda alsın*», «*xuda urg'an*», «*xuda dırnaqdan qısmaq*», «*xudanıñ qəhrinə uchramaq*» kabi frazeologizmlar shular jumlasiga kiradi.

B). Diniy rasm-rusumlar doirasida shakllangan dialektal frazeologizmlar.

³⁸ Cherdenseva T.Z. Yazik i ego obrazi. M.,1977,S35.

Diniy rasm-rusumlar bilan aloqador tushunchalarni gavdalantirish asosida ham qator dialektal frazeologizmlar shakllangan: «*is chыqarmoq*», «*kəlimə qылmaq*», «*dili kələməgə gəlmək*», «*kələmə qaytarmaq*», «*dunyany tərک ətmək*», «*pətihe bərmək*», «*gunaga batmaq*», «*gunasynan geçmək*», «*duayy janynan volmaq*», «*shaytanyñ sözinə kirmək:sheytanyñ gəvinə kirmək:sheytanyñ gəvinə inanmaq*», «*qur'an ursyn*», «*ərvah ursyn*», «*dua qылmaq*», «*appaq xojam ursyn*», «*pir urg'an:pir qaқkan*», «*qyzыр kərgən:həzirəti qyzыр kərgən:həzrəti qyzыryñ nəzəri dыshkən*» kabilar shular jumlasiga kiradi. Shuningdek, xudo soʻzi oʻrnida «*olloh*», «*parvardigor*», «*taңry*», «*yaratqan*» kabi soʻzlar xam qoʻllanilib, «*ollohning panohiga topshirdim*», «*ollohu akbar*», «*parvardigor yaratgan*», «*tangridan soʻradim*» kabi variant frazeologizmlar shakllangan.

Dialektal frazeologizmlarning shakllanish jarayonlari juda keng va koʻlamli boʻlib, ular tilda muhim ifodaviy vazifalarni bajaradi. Frazeologik tizim tilning leksik va grammatik tizimlariga tayanadi. Frazeologizmlar soʻzlardan tashkil topadi va tilning grammatik qurilishi asosida shakllanish xususiyatlari mavjud. Birinchi navbatda frazeologizmlarning yuzaga kelishi soʻzlovchining narsa-predmet, hodisalarni obrazli-ekspressiv ifodalash ehtiyoji bilan bogʻliqdir. Oʻzbek xalqining milliy oʻziga xosligi, ayniqsa, dialektal frazeologizmlarda ham ravshan aks etgan boʻladi.

1.3. DIALEKTAL FRAZELOGIZMLARNING TASNIFI MASALASI

Keyingi yillarda oʻzbek adabiy tili frazeologiyasi boʻyicha koʻpgina ilmiy tadqiqotlar qilindi, bir necha frazeologik va frazeologik izohli lugʻatlar yaratildi, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlandi (2:1972; 3: 1976;1978; 1983; 4:1964; 6:1957; 7:1978; 10:1981; 13:1957). Lekin dialekt va shevalar leksikasining uzviy qismi boʻlgan va xalq orasida koʻplab ishlatiladigan frazeologik iboralarni oʻrganish olimlarimiz eʼtiboridan chetda kolib kelmoqda. Bu

borada shevashunos olimlarning ayrim ilmiy maqolalarini ko'rsatish mumkin (5:1961; 8:1982; 1968: 12:1966).

Dialekt va shevalardagi frazeologizmlarni o'rganish, birinchidan, xalqimizning til boyligini, javohirlarini yig'ish bo'lsa, ikkinchidan, milliy o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lgan frazeologik va idiomatik birikmalarning kelib chiqishi, ularning tub ma'nolarini aniqlashda yordam beradi hamda o'zbek shevalari lug'atini tuzishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mahaliy shevalardagi frazeologizmlar juda erta davrdan beri qo'llanilib, til elagidan suzilib o'tib, tarkibi jihatdan mustaxkam, ma'no jihatdan o'tkir hisoblanadi. Bunday qoliplashgan turg'un so'z birikmasini til tarkibidan chiqarmasdan, xalq avloddan-avlodga etkazib keldi. Shuningdek, frazeologik iboralar so'zlovchining biror narsa-hodisa yoki predmet, inson haqidagi yo ijobiy, yo salbiy bahosini, ekspressiv xususiyatlarini hamda ularga bo'lgan emotsional munosabatlarini ifodalaydi. Shuning uchun ham u so'zlovchining nutqiga rang-baranglik, ta'sirchanlik baxsh etadi. Masalan, qaynona kelinning biror ishini yoqtirmasa, u bilan janjallashish niyatida bo'lsa, kelinga nisbatan kamsitish, kinoya, ya'ni kelinni «uzib-uzib olish» niyatida bo'lganda salbiy ma'noni ifodalovchi frazeologik iboralarni ishlatadi: *dəpsə dərpən məs tapsa tebranmas, ichinən dəyngg'an, ichinən pishkən, chobıt chəynər, shum təkə, shaytana savaq bərədi, til yalama:til djalama, yılanın yag'ın yalag'an* va b. Aksincha, suhbatdosh biror kishining ishidan xursand bo'lsa, (qizi yoki o'g'lidan), u holda ijobiy munosabat bildiruvchi iboralardan foydalanadi: *ayag'ı yeñil, qolı gyl, aq-qaranı danıydy, ayag'ınan ot chaqınydy, qolı uzun, gəpi mazalı:gəvi bal:gəvinən bal damadı, tili shi:rin:tili duchchı, kəvni achıq* va h.

O'rganilayotgan shevalardagi frazeologik iboralar adabiy tildagi frazeologik iboralardan ikki xil belgisi bilan farq qiladi:

1. Shevalardagi frazeologik iboralar tarkibida adabiy tilda uchramaydigan so'z bo'ladi: *zobalañ samaq 'shoshiltirmoq', kəñli qosh: avzı vochaqday 'dimog'i chog'* 'xursand', 'shod', 'ishtiñ hədisin aluv' 'tajriba orttirmoq', *dabarası yer*

yaradyl:dabarasyl djer djaradyl 'dovrug'i baland', bashyl chaqchaday qatuv 'chuqur o'ylamoq', bashyn chyirgybäläk aylantyruv – 'ta'sir etmoq' va b.

2. Shevalardagi frazeologik birlashmalar tarkibidagi so'zlar adabiy tilda bo'lsa ham, adabiy me'yordagi frazeologik birlashma tarkibidagi so'zlar bilan teng kelmaydi. Shu sababdan ularning ma'nosi ham o'xshamaydi: *gözi dört boluv 'kutmoq', tuvbasyına tayanmaq 'bo'yniga oldirmoq', qol qavshurmaq 'bo'ysinmoq', shaptalyl qaқыb chыqmaq 'sovuq qotmoq', ot basqanday 'chaqqon', 'abjil', chaqqon va b.*

Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarining frazeologik birlashmalarida adabiy tilimizda yo'q so'zlar ishtirok etgani bilan, ularning ko'pchiligi shevalarda yakka holda ishlatilmay, frazeologik ibora tarkibida qatnashadi: *tishtih tuqylly qalmav 'qarigan', tәp bermәv 'chidatmaslik', partyl gәtip, shartyl qamaq 'eskirgan', 'yoroqsiz', adoily tamom bo'lmoq, part boluv 'mot bo'lmoq', 'ado bo'lmoq', 'tamom bo'lmoq', pәlәgi adjdy, dүynәki suchchy 'o'zi yomon bo'lsa ham bolasi yaxshi', qoydyң avzyman chәp amau 'yovvosh', 'beozar', әymәti kelyv 'ishi yurishmoq', 'yo'li bo'lmoq', mag'yzyn chag'uv 'tushinib etmoq', 'dilgir bomaq' 'kutmoq' va b.* Bu iboralar tarkibida fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlar ishtirok etgan, ularning o'zlashish jarayoni qadimgi davrga borib taqaladi, dastlabki davrida ular o'zlarining to'g'ri ma'nosida ishtirok etgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Keyin tilning urug'-qabilachilik davridan xalqlik davrga o'tish paytida xalq tilining tarkibidan chiqib qolgan. Agar ularning to'g'ri ma'nosi aniq bo'lmasa, frazeologik birlashma tarkibiga aralashishi qiyin. Bundan tashqari, birikmaning asosiy qismi asl turkiy so'zlardan (ko'pincha fe'llardan) tarkib topgan. Bu dialektal frazeologik iboralarning ko'pchiligi hozirgi kunda qardosh qaroqalpoq, qozoq, turkman, ozarbayjon, tatar, no'g'ay, qirg'iz va boshqa turkiy tillarda ham uchraydi. Frazeologik birlashmaning bir tildan ikkinchi tilga to'lig'i bilan o'tishi, yakka so'zlarday emas, juda qiyin. Shu boisdan ularni xalqlik tilgacha bo'lgan jarayon deb tushinish zarur. Shuningdek, mahalliy shevalardagi frazeologik birlashmalarining ichida urug'-qabila tillariga aloqasi bor ekanini ayrim so'zlarning

hozirgi tilimizda ma'nosining noaniq holga kelib qolishi. yakka holda qo'lanmasligi bilan izohlash o'rinlidir.

Dialektal frazeologik iboralar ko'pincha xalqning kasb-hunariga bog'liq ravishda ham qoliplashadi. Qoraqalpog'iston hudidida yashovchi o'zbeklarning dehqonchilik, bog'dorchilik, sabzovatchilik, baliqchilik, chorvachilik, paxtachilik, sholikorlik bilan shug'ullanishiga bog'liq ishlatiladigan frazeologik birlashmalar mavjud: *duttay dökilyv, djiydədəy qalqyp chyg'uv, qavun qavunnan irəh aladı* 'bir-biriga qarash. Chorvachilik bilan bog'liq frazeologik birlashmalar anchagina: *kəgin aluv* 'maysaga to'yishi', *tish yarg'an* 'balog'at yoshiga etgan uy hayvonlari', *haramzasında qachqan*- 'balog'at yoshiga etmasdan qochgan uy hayvoni', *əlmisaqtan qag'an* 'juda qari' va b.

Keyingi vaqtlarda frazeologik birlashmalarni turg'un birikmaning ma'nosi bilan uning tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga ko'ra, tasnif etish yuzaga keldi (1:214-215). Bu tasnif Qoraqalpog'iston o'zbek shevalaridagi frazeologik birlashmalarni guruhlashda e'tiborga olindi. O'zbek tilshunosligida bu masalaga bog'liq bir necha terminlar ishlatila boshladi. Masalan, frazeologik butunlik; frazeologik chatishma; frazeologik qo'shilma (13:1957). N.M.Shanskiy buni frazeologik ifoda deb atashni tavsiya etadi. (11:1969).

1. Frazeologik butunlikka semantik nuktai nazardan ajratilmay, butun ko'rinadigan, ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nosi bilan bog'lanmagan frazeologik birlashmalar tashkil etadi. Faqat frazeologik birlashmadagi so'zlarning anglatadigan dastlabki ma'nosining atrofida narsalar bilan hodisalarning boshida bo'ladigan bir xususiyatiga ega ichki-tashqi ko'rinishning bir tomoniga asoslanadi. Uning tarkibidagi so'zlar bir ma'noni anglatishda to'bini o'zgartirmasdan, yakka nom sifatida gapga qatnashadi. Uning tarkibi leksik jihatdan ham, grammatik nuqtai nazardan ham o'zgartirishni ko'tarmaydi: *tishtiñ kəvəginda saqlav* 'bor imkoniyat bilan saqlamoq, himoya qilmoq', 'ehtiyot qilmoq'. Bunda og'izning ichida, tishning kavagida (teshigida) saqlash degan so'z hech qanday shubha tug'dirmaydi. *Di:shin di:shinə qoymaq* 'gapirmaslik', 'aytmaslik', 'chidamoq'

Agar tish tishga tegib tursa, og‘iz ochilmaydi, gapirish qiyin, ya‘ni *di:sh yarmav* sinonimi xarakterli. Dialektal frazeologik butunlikka kuyidagi birlashmalarni keltirish mumkin: *chəkkəsi dırbıshuv* ‘biror narsaning xumori tutmoq’, *dash bermav* ‘chidatmaslik’, uning sinonimi sifatida *dətətki berməv* iborasini keltirish mumkin, *dıyanaqlı söz* ‘ixcham gap’, ‘mazmunli’ *bir adım yer* ‘yaqin’, **dört köz boluv** ‘telmurib kutmoq’, *tobəsində mydjənə chaquv* ‘tinichini olmoq’, ‘buzmoq’, *kəzinə chöp saluv* ‘xo‘rlamoq’, ‘mensimaslik’, *kəzin chivin yımələv:avzın chıvın basuv* ‘darmonsizlanmoq’, ‘kuchsizlanmoq’, qadsizlanmoq, *gəzin chıvın basmoq* va b. Dialektal frazeologik butunlik grammatik shakllar orqali jamlashib, butun bir tutash leksik ma‘noni aniq ifodalaydi.

2. Frazeologik chatishma birlashmalarning bu turi ham frazeologik butunlik kabi semantik jihatdan ajratilmaydigan, bir tutash birlik. Buning ma‘nosi – tarkibidagi so‘zlarning leksik ma‘nolariga ajratib bo‘linmaydigan, tutash hoida, faqat obrazli yasama ma‘no tarzida izohlanadi (1:1973.218): *shaptalı qaқыр chыquv* ‘sovuq kotmoq’, *bashın chыр gybələk aylantıruv-* ‘ishontirmoq’, ‘o‘zi tomonga og‘dirib olmoq’, *duttay dəkilyv* – ‘hamma narsasidan ajralmoq’, *shырday bomaq ag‘zy gəjədəy qaynav* ‘bemani gaplarni ko‘p gapirmoq’, *suvğ‘a tyshkən sıchandy* ‘kuchsiz’, ‘nochor holda qolmok, chorasiz qolmoq’, *vəz ətin vəzi yemək* ‘pushaymon bo‘lmoq’ va b. Bulardagi obrazlilikning ko‘chma ma‘nosi frazeologik birlashmaning tutash ma‘nosini tashkil etadi. Shu ko‘chma ma‘noning ta‘siridan frazeologik birlashmaga aloqador so‘zlarning to‘g‘ri ma‘nosi frazeologik iboraning u ma‘noga aloqador bo‘lmagan ma‘nosini tug‘diradi. Shundan keltirilgan bog‘li ma‘no to‘g‘ri ma‘no asosida qoliplashib, unga aloqador bo‘lgan so‘zlarni tushirib qoldirish, orasiga boshqa so‘z kiritish, boshqa so‘z bilan ularning birortasini almashtirib ham bo‘lmaydi va o‘rin tartibi ham saqlanadi.

3. Frazeologik qo‘shilma tarkibida ko‘pincha ikki so‘z bo‘lib, uning bir ma‘no jihatdan bog‘liq, ikkinchisi ma‘no jihatdan erkin keladi. So‘zning bog‘li

ma'nosi erkin ma'noli so'z bilan birikmasdan ochilmaydi. U kez kelgan so'z bilan emas, o'zining o'rganishgan bog'liq so'z bilangina qator ishlatiladi. Frazеologik qo'shilmaga shevalardan quyidagi frazeologik birliklarni keltirish mumkin: *yeta qaba* 'biror narsaning ikkinchi narsaga tenglashib qolishi', *bir quyli bar-o'jar*, *keqash ashы* 'to'ydan oldingi bosh qo'yish', *qыrq uruvdan yыg'ыlan* 'har xil toifadagi odamlardan yig'ilgan', *həsəsi qaytuv* 'biror narsaning evaziga hissasi qaytishi', shəshti qaytuv va h..

Dialektal frazeologik qo'shilmaning ma'nosi tarkibidagi bir so'zning ma'nosi bilan ulanib keladi-da, boshqasi shu ma'noni aniqlab, ta'kidlab va kuchaytirib keladi: *tirsək adam* 'o'jar odam', *iyt tirsək* qing'ir *saqыp adam*, *дыныр yarashmaq* iboralar tarkibidagi tirsak, saqыр, дымыр so'zlarini boshqa shakldagi so'zlar bilan biriktirib aytishga yo'l qo'ymaydi, lekin ularning o'rnida boshqa so'zlarni ishlatish mumkin. Biroq ular frazeologik iborani emas, erkin birikma holatiga aylanadi.

4. Frazеologik ifodaga ma'nosi erkin so'zlarning birikishi bilan bog'liq bo'lgan, tarkibi va ishlatilishi jihatdan turg'un keadigan frazeologik iboralar mansub. Erkin so'z birikmalari bilan gaplar nutk jarayonida hosil qilinsa, frazeologik ifodalar, umumiy frazeologik birlashmalarning boshqa turlari kabi, o'zining turg'un tarkibi bilan ma'nosi deyarli birlik sifatida shu qolipida ishlatiladi. Biroq uning tarkibida frazeologik qo'shilma kabi ma'no jihatdan bog'li so'z bo'lmaydi: *pəlagi adjы dyynəki suchчы*, *pishəkinə pish demav* 'halaqit bermaslik', *qoshar bikə qoshыp aytar*, *qoshыp aytmasa nesin aytar* 'yolg'onni to'kib chiqarmok', *чыг'асы malg'a iyəsi boshчы* 'biror talofatga yo'liqishiga o'zi sababchi bo'lmoq' va b.

Xullas, dialektal frazeologizmlarning semantik-grammatik strukturasi o'zbek adabiy tilda ko'llanuvchi frazeologizmlarga ko'p jihatdan mos keladi. Lekin shu bilan birga o'ziga xos farqli tomonlarga ham ega: 1) leksik tarkibi jihatdan; 2) ko'p variantlilik; 3) turli sinonimik qatorga egaligi; 4) o'ziga xos semantik asosga –

emotsional-ekspressivlik, obrazlilikning kuchliligi; 5)hududiy jihatdan yondosh tillarning ta'sirini o'zida mujassamlashtirganligi bilan tafovut qiladi.

I K K I N C H I B O B

DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK SHAKLLANISHI MASALALARI

Bunda dialektal frazeologizmlarning semantik strukturasi, frazeologik traspozitsiya va spontanlik, frazeologik ma'no shakllanishining omillari tadqiq etiladi.

Frazeologik tizimda frazeologik ma'no asosiy rol o'ynaydi. Sh.Raxmatullayev frazeologizmlarning semantik hodisa ekanligini ta'kidlab, uning **«boshqa til hodisalaridan farqini shu tomoni belgilaydi»³⁹**, -deb ko'rsatadi. Tilshunoslikda frazeologik ma'no **«birikmaning semantik yaxlitligi»⁴⁰**, **«komponentlari leksik ma'nolarining tarkibiy qismlarga ajralmasligi»⁴¹**, **«semantik yaxlitlik va so'z - komponent xususiy ma'nolarining yo'qolishi»⁴²**, **«leksik ma'nolarning yaxlitligi»⁴³**, **«birikmadan anglashilgan yaxlit, ustama ko'chma ma'no»⁴⁴** singari talqin qilinadi. Ammo aksariyat tilshunoslar frazeologik ma'noning birikmadan anglashilgan yaxlit, ustama ma'no ekanligini e'tirof etadilar.

Dialektal frazeologizmlarning mazmun plani lug'aviy va grammatik ma'nolar yig'indisidan iborat bo'lishiga ko'ra, so'zlarning mazmun planiga mos keladi. Ikkala til birligining grammatik ma'nolari egalik, kelishik, shaxs-son, nisbat, zamon kabi grammatik kategoriyalar asosida shakllanishiga ko'ra o'xshashligi e'tirof etilsada, lug'aviy ma'nolarning tabiatiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Dialektal frazeologik ma'noning shakllanishi ham murakkab jarayon bo'lishi bilan birga, frazeologik ma'no tarkibi ham juda murakkabdir. Odatda **«frazemaning mazmun planida frazeologik ma'no va uslubiy ma'no»⁴⁵** farqlanadi. Lug'aviy

³⁹ Raxmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki.-Toshkent, 1970, -43b.

⁴⁰ Vinogradov V.V. Osnovnie ponyatiya russkoy frazeologii kak lingvisticheskoy distsiplini // A.A.Shaxmatov.-M.,-L., 1947.S.14.

⁴¹ Amosova N.N. O tselostnom znachenii idiomi // Issledovaniya po angliyskoy filologii.-L., 1961, №2.S.9.

⁴² Jukov V.P. Semantika frazeologicheskix oborotov.-M.,1978.s.14.

⁴³ Axmanova O.S. Ocherki po obney i Russoy leksikologii.-M., 1966,s.503.

⁴⁴ Raxmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki.-Toshkent, 1970, -56b.

⁴⁵ Raxmatullayev Sh. Leksikologiya bilan frazeologiya //Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 1992,74b.

ma'no frazeologik birlik ifodalaydigan tushuncha, nomlanuvchi narsa-predmet, jarayonni bildiruvchi ma'no hisoblanib, signifikativ va denotativ jihatlarni qamrab oladi. Uslubiy ma'no munosabat kabilarni ifodalovchi ma'nodir.

Yu.A.Gvozdev frazeologizmlarning asosiy vazifasi ularning ekspressivligi va konnotativligida ko'rinadi, chunki ayni denotativ ma'nolarni ifodalaydigan boshqa til birliklari mavjud⁴⁶ligini ta'kidlaydi. Demak, konnotativ (uslubiy) ma'no frazemaning mazmun planida alohida o'rin tutadi. Ta'kidlash lozimki, mavjud barcha dialektal frazeologizmlar konnotativ ma'nolarga ega bo'lmaydi. Masalan, «qulach yaymaq», «maqul dapmaq», «umid qylmaq», «davush bərmək», «davush chıqarmaq», «əl qoymaq», «əl chekmək» kabilar faqat lug'aviy ma'noga ega bo'lib, nominativ vazifa bajaradi. Ammo aksariyat dialektal frazeologizmlar konnotativ ma'no komponentiga ega. Chunki dialektal frazeologizmlar ham ayni uslubiylikni yuzaga keltirish ehtiyoji asosida yaratilgan hodisadir. **«Predmet, voqea-hodisalarning ekspressivlik xususiyati frazeologizmlarda voqe bo'ladi, ammo bu xususiyati ularning nominativlik xarakterini inkor etmaydi»⁴⁷** kabi fikrni e'tirof etish lozim.

Konnotativ ma'no **«tarkibida emotsionallik, ekspressivlik, baho-munosabat, uslubiy bo'yoqdorlik»⁴⁸** kabi to'rt komponent mavjud. A.V.Kunin esa, beshinchi komponent sifatida obrazlilikni ham qo'shadi. Lekin dialektal frazeologizmlar muayyan obrazlar yoki obrazli tasavvurlar asosida yuzaga kelishini hisobga olsak, obrazli⁴⁹lik frazeologizmlarning nisbatan barqaror qismi bo'ladi. Shuning uchun ham dialektal frazeologizmlarga xos obrazlilikni konnotativ komponent emas, balki denotativ komponent deyish o'rinlidir.

Dialektal frazeologizmlarning nominativlik ma'nosidan tashqari, emotsionallik, ekspressivlik, baho-munosabat kabi ma'no elementlarining omuxtaligi faqatgina predmetga xos bo'lgan mantiqiy ma'noni ifodalab qolmaydi,

⁴⁶ Gvozdev Yu.A. Osnovi russkogo frazeologizma. - Rostov-na-Donu, 1977; s.12.

⁴⁷ Kunin A.V. Kursi frazeologii sovremennogo angliyskogo yazika. - M., 1986. s.161.

⁴⁸ Arnold I.V. Stilistika sovremennogo angliyskogo yazika. - L., 1973, s.105.

⁴⁹ Kunin A.V. Kursi frazeologii sovremennogo angliyskogo yazika. - M., 1986. s.161.

shu bilan birga mantiqiy ma'noga emotsional munosabatini ham ifodalaydi. Maslan, «*vətəkəsin yaran*», «*yılanın yag'ın yalagan*», «*udjına chıqan*» kabi *dialektal frazeologizmlari* katta hayotiy tajribalilikni, mug'ombirlikni anglatishi bilan birga kishilarga nisbatan salbiy emotsional munosabatini ham bildiradi. Shu bois, bu kabi *dialektal frazeologizmlarni* neytral vaziyatda ishlatib bo'lmaydi. Chunonchi, «*dili bir qarıch*», «*dili bir qulach*», «*dili qulach-qulach*» iborasi gapdan shaxs xarakterini ifodalashi bilan birga, shu shaxsga bo'lgan o'ta salbiy munosabatni ham bildiradi.

2.1. DIALEKTAL FRAZEOLOGIK MA'NONING SHAKLLANISH JIHATLARI

Bu juda murakkab va keng jarayondir. Shuning uchun ham bu jarayonning jihatlari, o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Lug'aviy va konnotativ ma'nolar nofrazeologik birikmalarni ko'chirish asosida yuzaga keladi. Obrazlilik esa faqatgina konnotativ ma'noning qismi bo'lmasdan, lug'aviy ma'noning ham doimiy, ajralmas qismidir. Lug'aviy ma'no ham, konnotativ ma'no ham obrazlilik asosiga qurilgan bo'ladi. Dialektal frazeologik shakllanish jarayonlarini tadqiq etish ularning dastlabki asoslarini aniqlash lozimligini taqozo etadi. Shunga ko'ra, ularning qanday vositalar asosida shakllanishi va qay tarzda til (nutq) fakti sifatida paydo bo'lishi kabi masalalar o'z yechimini topish lozim. Shunga ko'ra, motivlovchi asos kabi tushunchani aniqlash zarurati tug'iladi.

Dialektal frazeologizmlarning nominativlik ma'nosidan tashqari, emotsionallik, ekspressivlik, baho-munosabat kabi ma'no elementlarining omuxtaligi, motivlovchi asosi, mantiqiy asosi, derivatsiya yordamida motivlovchi asosning til fakti sifatida shakllantishi, semantik qayta shakllanish jarayonlari, vosita va usullari, ularning: **a) til birligi biror yoki voqea-hodisani o'z belgisi sifatida nomlash uchun xizmat qilishi, u to'g'rida tasavvur tug'dirishi.** Bunda

til birligi, ya'ni uning belgilari so'z yoki so'z birikmasiga xos bo'lgan belgilarni nomlashi, dialektal frazeologik transpozitsiya jarayonida erkin bog'lanma yoki gapning semantik va grammatik o'zgarishlari muvoziy holda yuz berishi.

Motivlovchi asos deganda dialektal frazeologizmni til fakti sifatida shakllantiradigan mantiqiy asos tushuniladi. Asos birlik frazeologizmga aylangunga qadar so'z yoki so'z birikmasi va gap ko'rinishda bo'ladi. Mantiqiy asosning frazeologizmlarga xos bo'lgan ottenkalari bo'lmaydi. Bunday asos u yoki bu predmet narsalarni shundayligicha ifodalaydi. **Mantiqiy asos (so'z, so'z birikmasi, gap) frazeologizmga nisbatan asos bo'ladi.** Masalan, «*uddalamoq*» leksemasi «*uddasidan chiqmoq*» frazeologizmi uchun mantiqiy (motivlovchi) asosdir. «*ayaquna bash qoymaq*» erkin bog'lanmani ko'chirish asosida «*yalinmoq*» ma'noli frazeologik ma'no yuzaga keladi. Bunda erkin bog'lanma frazeologizm uchun motivlovchi asos hisoblanadi.

Derivatsiya yordamida motivlovchi asos til fakti sifatida shakllanadi. Xuddi o'zbek adabiy tilidagidek, dialektal frazeologizmlar ham quyidagi to'rt derivatsion asosga ko'ra shakllanadi: **1) so'zlarning mantiqiy asosi; 2) erkin bog'lanmalar va gaplar; 3) umumtil frazeologizmlari; 4) o'zga til materiallari.** Qayd etilgan til materiallari derivatsiyasi leksik-semantik qayta shakllanish asosida yuzaga chiqadi.

Ma'lumki, semantik qayta shakllanishning jarayonlari, vosita va usullari tilshunoslikda etarli o'rganilgan. Masalan, M.M.Pokrovskiy o'zining semasiologik tadqiqotlarida⁵⁰ semantik qayta shakllanishning qonuniyatlari to'g'risida fikr bildirgan. L.Blumfild semantik o'zgarishlar asosida yangi so'zlar paydo bo'lishining: «ma'no torayishi, ma'no kengayishi, metafora, metonimiya, sinekdoxa, giperbola, litota, ma'noning zaiflashuvi, ma'noning rivojlanishi»⁵¹ kabi ko'rinishlari mavjudligini ta'kidlaydi. S.Ulman esa semantik qayta shakllanishning

⁵⁰Pokrovskiy M.M. Izbrannie raboti po yazikoznaniyu.- M., 1959, s.57.

⁵¹ Blumfild L. Yazik.-M., 1968, s.466-467.

usuliga «metafora yo‘li bilan ko‘chirish, ma’noning kengayishi torayishi va tabu»⁵² larni kiritadi. V.G.Gak bu jarayonda beshta omil ishtirok etishini uqtiradi» ma’noning kengayishi va torayishi, ma’noning ko‘chishi (metaforik, metonimik)»⁵³. Sh.Raxmatullayev frazeologik birliklarda ma’no taraqqiyoti «ko‘chirish va tadbiq usuli bilan amalga oshishi»⁵⁴ni e’tirof etadi. Ta’kidlash lozimki, frazeologizmga xos bo‘lgan ma’no ko‘chirish, ya’ni, semantik qayta shakllanish asosida yuzaga keladi. Mualliflar e’tirof etgan usullarning ko‘pchiligi, jumladan, ma’no torayishi, ma’noning kengayishi, ma’noning zaiflashuvi, sinonimik rivojlanish kabilar frazeologik ma’no shakllangandan keyingi hodisalardir. Tabular esa semantik o‘zgarishning usuli emas, balki nolingvistik hodisadir.

Dialektal frazeologik shakllanishning yo‘llari va tiplarini tadqiq etishda muhim jarayon sifatida ma’no ko‘chishning vosita va usullarini o‘rganish lozim. Chunki, dialektal frazeologizmlar ham tilning alohida shu bilan birga uning ajralmas qismi sifatida leksik tizimga nisbatan borliq yoki voqea-hodisani o‘ziga xos yo‘sinda idrok qilish usullariga ega. Fikrimizcha, bular quyidagilar: **a) til birligi biror yoki voqea-hodisani o‘z belgisi sifatida nomlash uchun xizmat qiladi, u to‘g‘rida tasavvur tug‘diradi.** Bunda til birligi, ya’ni uning belgilari so‘z yoki so‘z birikmasiga xos bo‘lgan belgilarni nomlaydi. Masalan, «*bel baylamaq*», «*dash atmaq*», «*ag‘zı g‘ymək*» kabi birikmalar erkin bog‘lanma tarzida o‘ziga xos belgilarni ifoda etadi. Frazeologik ma’no ifoda etishda esa erkin bog‘lanmalarning komponentlari o‘zlarining asli ma’nolarini yo‘qotadi va pirovardida, boshqa tasavvurlarni ifoda qila boshlaydi. Bunda birikmaning ifoda plani bilan mazmun plani muvofiq kelmaydi; **b) til birligi u yoki bu hodisa, narsa-predmetni o‘zaro o‘xshashlik tizimining asosida bilvosita ataydi; v) til birligi u yoki bu hodisa, narsa-predmetlarni o‘zaro aloqadorlik tizimi asosida bilvosita nomlaydi.**

⁵² Ulman S. Semanticheskie universalii.//Novoe v lingvistike, vip.№5, -M.1970.s.274.

⁵³ Gak V.G. K probleme obıux semanticheskix zakonov. V kni Obııee i romanskoe yazikoznanie. M., 1972, S.145.

⁵⁴ Raxmatullayev Sh. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. 5-bet.

«Leksik ma'no ma'lum tovushlar tizimi bilan voqelik orasidagi bog'lanishdan kelib chiqadi»⁵⁵ desak, frazeologik ma'no qanday yuzaga chiqadi degan masala ko'ndalang bo'ladi. So'zning ma'nosi ham ular tashkil etgan til elementlari hisobiga voqe bo'ladi. Ammo leksik ma'no morfemalarning birligidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, leksik ma'no frazeologik ma'nodan farq qiladi. Albatta, turli morfemalarning leksik ma'nosini hosil qilishda vazifasi bir xil emas. So'zlarda asosiy semantik vazifani o'zak morfema bajaradi. Affiksial morfemalar esa, o'zak morfemaning mazmuniga qo'shimcha ma'no beradi. Shuning uchun morfemalar so'zlarning semantik tizimda frazeologik komponentlarga nisbatan muvofiqlashtirilgan bo'ladi. O'zak morfemalar ma'noning hosil bo'lishi uchun asosiy mezondir. O'zak morfemaning ma'nosi so'zga turlicha affikslar qo'shilganda ham yo'qolmaydi. Masalan, ishchi «*ish*» o'zak morfemadan, mehnatkash «*mehnat*», olmazor «*olma*» o'zak morfemadan o'sib chiqqanligi ma'lum. Ko'rinadiki, o'zak morfema anglatilgan ma'no asosiy bo'lib qoladi.

Frazeologizmlarni tashkil etgan komponentlar esa o'zak morfemalardek barqaror bo'lmaydi. Masalan, «*darʼisʼin xam ormaq*» frazeologizmida «*darʼi*» tariq, «*shalʼisʼi suvagetmʼak*» sholi semantik tayanch komponent sifatida e'tirof etilsa-da, u o'zak morfemadek vazifani bajara olmaydi, ya'ni frazeologizmlarga xos ma'noni to'liq shakllantira olmaydi. Keng ma'noda frazeologik ma'no grammatik va semantik jihatdan shakllangan erkin bog'lanmalarni yoki gaplarni ko'chirish yo'li bilan shakllanadi. Demak, frazeologizmlar erkin bog'lanmalarni yoki gaplarni o'ziga xos bo'lmagan ma'noda qo'llash asosida yuzaga keladi.

Tilshunoslikda bu jarayon frazeologik *transpozitsiya*⁵⁶ deb ataladi. Dialektal frazeologik transpozitsiya jarayonida erkin bog'lanma yoki gapning semantik va grammatik o'zgarishlari muvoziy holda yuz berishi mumkin. Masalan, «*ayaqʼin dirʼab amaq*», «*davanʼin dirʼab amaq*» birikmasi nutqda uni tashkil etgan so'zlar

⁵⁵ Tursunov U., Muxtorov J., Raxmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 61b.

⁵⁶ Kunin A.V. Kursi frazeologii sovremennogo angliyskogo yazika.-M.,1986.s.123-134. Sokolova G.G. Frazoobrazovanie vo frantsuzskom yazike.-M.,1987.s.5-13.

ma'nolarining yig'indisi sifatida ifodalanadigan «*qattiq jismga oyog'ini tirab turmoq*», shuningdek, «*o'z fikrining amalga oshishini qaysarlik bilan talab qilmoq*» (O'TFL) kabi ma'nolarga ega. Bir xil shaklga ega bo'lgan bir so'z birikmasi ikki matnda ikki xil ma'noni ifodalab kelayotir. Bundan frazeologik ma'no erkin bog'lanmani ko'chirish asosida **«uning tarkibidagi so'zlardan anglashiladigan ma'nolarning oddiy (arifmetik) yig'indisi bo'lmay, umumlashma, ustama ma'no, shu bilan birga ko'chma ma'no sifatida gavdalanadigan»**⁵⁷ ma'no ekanligi ayon bo'ladi.

«*duzaqyina ilintirmək*», «*yumyirta(tuxum) basmaq*», «*shappat (chapak) qaqyb qamaq*», «*shappat qaқырчыqmaq*» kabi birikmalar o'zni bilan erkin bog'lanma tarzida ham, frazeologik ma'no shakllanganda ham ularning dastlabki shakli saqlanadi, biroq ma'nosi o'zgaradi. Buni sxemada quyidagicha ifodalash mumkin:

Sh.M.-----Sh.M1. Bunda Sh-shakl. M-ma'no.

Tilshunoslikda transpozitsiyaning ikki ko'rinishi farqlanadi: birlamchi transpozitsiya, ikkilamchi transpozitsiya. Birlamchi transpozitsiya erkin bog'lanma yoki gapning frazeologizmga aylanish jarayonidir. Erkin bog'lanma frazeologizm ma'nosining mantiqiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Ikkilamchi transpozitsiya esa, shakllangan frazeologizmlarni turli tuman o'zgarishlar asosida yangi ma'noli va yangi shaklli frazeologizmlarni yuzaga keltirishdir. Birlamchi transpozitsiya dialektal frazeologik shakllanish tizimida eng mahsuldor hisoblanadi. Aksariyat frazeologizmlar ayni shu jarayon asosida shakllanadi: «*di:shi otmaydi*», «*yyzinə ayaq qoymaq*», «*ag'zyna daqan samaq*», «*daqan chiynəmək*» kabi frazeologizmlar shular jumlasiga kiradi.

Barcha dialektal frazeologizmlarning ham asosini erkin bog'lanma yoki gap tashkil etadi deyish shartlidir. Shunday dialektal frazeologizmlar ham mavjudki, ularni erkin bog'lanma tarzida qo'llab bo'lmaydi. Masalan, «*i:sh pishdi*»

⁵⁷ Raxmatullayev Sh. Leksikologiya bilan frazeologiya //Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent, 1992,74b.

birikmasini faqat frazeologik ma'noda idrok qilish mumkin. Shuningdek, «*yŷrægi arqasyna dartyb getdi*», «*næzærdæn qachmaq*», «*sŷichan ini miŷ tæhgæ boldŷ*» kabi birikmalar faqat ko'chma ma'noda ishlatiladi. Bularni spontan (o'z-o'zidan, tashqi ta'sirsiz, ichki sabablar tufayli) paydo bo'lgan deb atash mumkin.

2.1.1. METAFORA YO'LI BILAN KO'CHIRISH

Bunda leksik ma'no taraqqiyotida ham, frazeologik ma'noning shakllanishi va taraqqiyotida ham eng mahsuldor usul sanaladi. Antik mualliflar **«troplar ichida metafora eng ko'lamli va yorqin obrazlarni vujudga keltiruvchi vositadir»⁵⁸**, deb ta'kidlaydilar. Metaforaning xarakterli xususiyati predmet, harakat, narsa, hodisalarning nomlari boshqasiga o'zaro o'xshashligi asosida ko'chirilib, yangi ma'noni yuzaga keltirishdan iboratdir. Leksikologiyada metafora leksik ma'noni taraqqiy ettiruvchi vosita sifatida qaraladi. Frazeologiyada esa metaforani yangi ma'noni shakllantiruvchi vosita sifatida qaraymiz. So'z birikmalarini metafora yo'li bilan ko'chirish asosida butunlay yangi ma'noli til birligi yuzaga keladi. Metafora yo'li bilan ko'chirish butun birikmaga yoki uning ayrim qismlariga tegishli bo'lishiga ko'ra, to'liq yoki qisman semantik shakllanishlarga ajratish mumkin.

To'liq semantik shakllanishda frazeologizmlar tarkibidagi barcha komponentlarning ma'nolari yaxlitligicha ko'chiriladi: «*bir chuqŷishdan qachŷirmaq*», «*qoltŷig'ŷina suv purkæamæk*», «*bir tækægæ (yostiŷqa) bash qoymaq*», «*adŷin basha qoyaman*», «*ag'zŷi quloqŷinda*», «*ælinæn gælædi, qondŷŷinan basadŷ*» kabilar shular jumlasidandir. Qisman semantik shakllanishida esa dialektal frazeologizmlarning ayrim komponentlarini ko'chma ma'noda qo'llash asosida yuzaga keladi. Masalan, «*haŷiqatnŷi bykmæk*» frazeologizmining ma'nosi «*bukmoq*» fe'lini, «*bashŷinŷi emoq*» frazeologizmining ma'nosi «*buzmoq*» fe'lini ko'chirish asosida shakllanadi.

⁵⁸ Antichnie teoriya yazika i stilya.-M.,-L. 1936.s217.

Metafora yo‘li bilan ko‘chirishda o‘xshatish hamma vaqt birinchi hodisa, metaforalashishning birinchi bosqichi hisoblanadi. Turli hodisalar, narsalar o‘zaro o‘xshatilishi asosida yuzaga kelgan ma’nolar ikkilamchi bo‘ladi. Frazeologik ma’nolar ham ikkilamchi sifatida yuzaga keladi.

Ayrim adabiyotlarda metaforaga stilistik figura sifatida qaraladi. Ammo E.T.Cherkasovaning «**metafora konstruksiya ham, hatto so‘z ham emas, balki semantik funksiyadir**» degan fikrini asosli deb o‘ylaymiz, chunki «**ko‘chirish usullaridan metafora asosiy o‘rinni egallaydi**»⁵⁹. Masalan, «*jılavın bosh qoymaq*», «*jılavın tartıb qoymaq*», «*bir ayaqın bosh qomaq*» frazeologizmlari erkin bog‘lanma tarzida ham, frazeologizm ma’nolarida ham qo‘llanishi mumkin. Aslida jilovini tortish yoki bo‘sh qo‘yish otga tegishlidir. Otning harakatini to‘xtatish uchun jilovini tortish zarur. YOki otni ildam harakatlantirish uchun jilovini bo‘shatish lozim. Ayrim hollarda jilovini butunlay bo‘sh qo‘yish bedov otlarni o‘z-o‘zidan qattiq chopishga undaydi. Shu kabi holatlarni shaxsga nisbatan qo‘llash asosida frazeologik ma’nolar yuzaga kelgan. Birinchidan, otning jilovini tortish bilan uni harakatdan yoki qattiq harakatdan tiydirish holatini inson holatiga ko‘chirish asosida «*tartibga chaqirib, chek-chegaradan chiqib ketishga yo‘l qo‘ymaslik*» (O‘TFL) ma’nosi shakllangan bo‘lsa, ikkinchidan, otning jilovini bo‘sh qo‘yish, o‘z holiga tashlab qo‘yish holatini inson holatiga ko‘chirish asosida «*hatti-harakatini tejab-tergamay, o‘z ixtiyoriga tashlab qo‘ymoq*» (O‘TFL) ma’noli frazeologizmlar shakllanadi. Xuddi shu o‘xshashlik asosida «*jılavın bosh qoymaq*» yoki «*jılavın tartıb qoymaq*», «*bir ayag‘ın bosh qoymaq*» birikmalari shu harakatga o‘xshashligi bo‘lgan boshqa harakatning nomiga aylanadiki, u frazeologik ma’nodir. Metafora yo‘li bilan ko‘chirish konkret, mavhum, narsa-hodisalar doirasida, harakatlar va belgilar o‘rtasidagi o‘zaro o‘xshashliklar asosida yuz berishi mumkin.

⁵⁹Cherkasova E.T. O metaforicheskom upotreblenii slov. M., 1959. s13.

2.1.2. OBRAZLI O‘XSHATISHLAR YO‘LI BILAN KO‘CHIRISH

Obrazli o‘xshatishlar asosida dialektal frazeologik ma’nolarning shakllanishida narsa-predmetga to‘liq, mutloq o‘xshatiladi. Obrazli o‘xshatishlar predmet, narsa va hodisalarning biror o‘xshash belgisiga asoslanib, birining belgisi orqali ikkinchisining belgisini konkretlashtirib ko‘rsatuvchi badiiy vosita sifatida qaraladi. O‘xshatish asosida ko‘pincha sifat dialektal frazeologizmlar shakllanadi. Masalan, «*ammamni o‘djaki*» birikmasida buzoqning holati inson holatiga nisbatan o‘xshatiladi. Bunda ochiq, to‘liq o‘xshatishga asoslangan. Mana shu tarzda shakllangan dialektal frazeologizmlar jumlasiga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: «*burnidan dartsa yiqilguday*», «*bəchchini məkisi dəy*», «*iynəni udjunday*», «*Məkkədən gələnaday*», «*atası bazardan gələndiy*», «*mulla mingən əshəkdiiyin*», «*əgərlənən atdıyın*», «*biymə:əl qıychıqıran xorazdiyin*», «*asmandan dıshkəndiiyin*», «*yerdən kəkərib çıqqandiiyin*» kabilar.

2.1.3. METONIMIYA YO‘LI BILAN KO‘CHIRISH

Metonimiya yo‘li bilan ko‘chirishda ikki predmet yoki voqea-hodisa, tushunchalarning o‘zaro aloqadorligi asosga olinadi. **Tilshunoslikda leksik metonimiya va uning turli ko‘rinishlari keng tadqiq etilgan⁶⁰**. Ular mohiyat-hodisa, muallif-asar, xom-ashyo-mahsulot, harakat-natija kabi tizimlar yo‘nalishidagi aloqadorligini qamrab oladi.

Metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish asosida shakllangan dialektal frazeologizmlarni tadqiq etishdan oldin metonimiya va sinekdoxa orasidagi munosabatni aniqlab olish zarur. Keyingi paytlarda «**sinekdoxa metonimiyaning bir ko‘rinishi sifatida o‘rganilmoqda**»⁶¹. Bular o‘rtasidagi o‘xshashlik

⁶⁰ O‘zbek tili leksikologiyasi.-T.1981. 223-229betlar.

⁶¹ Golub I.B. Stilistika sovremennogo russkogo yazika. -M., 1986.S.233.

frazelogizmlardagi metonimik hodisani anglashda qator qiyinchiliklarni tug'dirmoqda. Sinekdoxa ham metonimiya kabi ikki aloqador narsa-hodisalarni va uning qismlari yoki belgilarini ifodalash asosida namoyon bo'ladi. Sinekdoxa, odatda bir predmet belgi-xususiyatlari boshqa predmetga butun va qism asosida ko'chiriladi. Shunga ko'ra, butunning nomi yoki qismning nomi butunning nomi bo'lib qoladi. Ko'rinadiki, narsa-hodisa bilan yaqqol ko'rinib turadigan o'zaro aloqadorlik sinekdoxa yo'li bilan ko'chirishda ham yuz beradi. Masalan, «*bashı baylıq*», «*turmushga chiqishga kelishib qo'yilgan, unashtirilgan*» (O'TFL) birikmasining frazeologik ma'nosi o'zaro aloqadorligi, ya'ni metonimik ko'chirish asosida shakllangan. Shu bilan birga, butunning qismi sifatida sinekdoxa ham yuz beradi. Shu ma'noda sinekdoxa frazeologik sathda ko'chirishning alohida turi emas, balki metonimiya doirasidagi ko'chirish sifatida qaralgani ma'qul. Shuningdek, dialektal frazeologizmlarning semantik shakllanishi qorishiq ko'chirish holda ham yuz berishi hisobga olinsa, sinekdoxani metonimiya doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Metonimiya yo'li bilan ko'chirish, asosan, semantik dialektal frazeologizmlarning semantikasini shakllantirishda ishtirok etadi. Bunda metonimiya-sinekdoxa tipida qorishiq ko'chirish yuz beradi. Chunki bu holatda odam tana a'zolarining qismlari nomlari shaxsning o'ziga nisbatan bo'lgan ma'noda qo'llana boshlaydi. Demak, qismning nomi butunni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, «*bosh*» semantik leksemasi frazeologizmlar tarkibida shaxsga xos bo'lgan xususiyatlarini, ularning xarakterini, u bilan bog'liq voqea-hodisalarni ifodalaydi: «*bashına ətmək*», «*bashına dıshmək*», «*bashına gəlmək*» «*bashın aylatırmaq*», «*bashın eymək*», «*bashın gətərib yyrə bilməslik*», «*bashı aman*», «*bashı sag'*». «*bashı achıq*», «*bashı bosh*», «*bashı bənt*», «*bash kətərmək*», «*bashı asmanda*», «*bashı gəkkə yetdi*», «*bash kətərdi*», «*bash tartmaq*», «*bash qatırmaq*», «*bash chayqamaq*» kabilar.

2.1.4. MUBOLAG‘A VA LITOTA ASOSIDA SHAKLLANGAN DIALEKTAL FRAZELOGIZMLAR

Ma‘noni ko‘chirish jihatidan mubolag‘a va litota metaforaga o‘xshaydi. Chunki ular ham metafora singari narsa-predmetlarning o‘xshashligiga ko‘ra ma‘noning ko‘chishiga asoslanadi. Shunga ko‘ra, o‘zbek tilida qator dialektal frazeologizmlar mubolag‘a va litota asosida ham shakllanadi. Masalan, «*aqlinib chaq basdib*» frazeologizmining ma‘nosi metaforik ko‘chirish yo‘li bilan shakllanishi bilan birga, uning asosida mubolag‘a ham yotadi. Mubolag‘a voqelikni uslubiy vosita sifatida talqin etiladi. Mubolag‘a voqelikni noaniq ifodalab, hayotda yuz berishi mumkin bo‘lmagan voqea-hodisani bo‘rttirib ko‘rsatish maqsadida paydo bo‘lgan. Ayni shunday ehtiyoj asosida qator dialektal frazeologizmlar ham shakllangan: «*bag‘rın kavob qılmaq*», «*dilinən zahar tamdı*», «*betiniñ pərdəsin sıyırtıb*», «*biriniñ ətin biri yeb*», «*miyəni qatırtıb otırmaq*», «*miyasın qaqqıb,əlinə bərmək*», «*ag‘zınan aq iyt kirib, qara iyt chıqadı*», «*suv gəlsə symirmək, dash gəlsə kəmirmək*», «*dyyəni dyki vilən yutmaq*», «*qashınıshqa dırnaqı həm qamadı*» kabilar.

Litota narsa, hodisa yoki belgining hajmini kamaytirib, kichraytirib tasvirlash asosida yuzaga keladi. Garchand, litota tarkibida metafora yotsada, ammo belgi xususiyatlarni kamaytirib ifodalashi xususiyati bilan qator dialektal frazeologizmlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan: «*bir ag‘ız*», «*bir chimdim*», «*bir chaqalıq*», «*bir tutam*», «*burga tepdimi?*», «*dəryadan bir tamchı*», «*iynəniñ udjunday*», «*iki ag‘ız*», «*dil udjunda*», «*dupkənniñ təyində*» kabilar.

2.1.5. DIALEKTAL FRAZELOGIZMLARNING SO‘ZLAR ASOSIDA SHAKLLANISHI

Tilshunoslikda so‘zlarning frazeologik shakllanishi uchun mantiqiy asos bo‘la olishi haqida turli mulohazalar bildirilgan. Jumladan, L.I.Royzenzon

«frazelogizmlar soʻzlar asosida emas, balki soʻz birikmasi va gaplar asosida shakllanadi. Shuning uchun leksika emas, balki sintaksis frazeologik shakllanish uchun «qurilish ashyosi» sanaladi»⁶², deb taʼkidlagan. Bu mulohazaga N.M.Shanskiy eʼtiroz bildirib, «sintaksis mavhum modellar va qurilmalar asosiga emas, balki konkret soʻz birikmalariga asoslanadi»⁶³ degan fikrni bildiradi. Darhaqiqat, frazeologizmlar erkin birikmalar singari harakatchanlikka ega boʻlmaydigan, gap qurilishi jarayonida fikrning talabiga qarab tashkil topavermaydigan til birligidir. Shu maʼnoda dialektal frazeologizmlar ham leksik sathdagi kombinatsiyalardan tashkil topadi.

Alohida olingan soʻzlar mantiqiy asos sifatida qatnashib, soʻzning maʼno asosiga koʻra birikma shakllanadi. Bunda soʻzning ichki boʻlinishi, yaʼni differensiya asosida soʻzning maʼnosi birikma shaklida namoyon boʻladi. Masalan: «*zələl gərmək*» frazeologizmining shakllanishi uchun «*zararlanmoq*» soʻzi mantiqiy asos boʻladi. «*əl chəkmək:imzolamoq*» soʻzi «*əl chəkmək*» frazeologizmi uchun mantiqiy asosdir. «*Zararlanmoq*» va «*imzolamoq*» soʻzlari differensiyaga, yaʼni ichki boʻlinishga uchrab, ularning denotativ maʼnolari frazeologik birikmada ham ifoda qilinaveradi.

Oʻzbek tilida koʻpgina soʻzlar dialektal frazeologizmlarning shakllanishi uchun asos boʻladi: «*jənjəlləshmək-jənjəl gətərmək*», «*giynələmək-giynə qılmoq*», «*faydalanmaq-fayda gərmək*», «*əsləməq-əsinə gəlmək*», «*fikrlmək-fikr yyritmək*», «*səyləmək-soʻz amaq*», «*uxlamaq-uyquga getmək*» kabilar.

Parafraza yoʻli bilan shakllanish ham ayrim sathda mantiqiy asosiga koʻra yuzaga keladi. Frazeologik sathda parafrazani frazeologik shakllanishning vositalaridan biri sifatida qaraymiz. Rus tilshunosi V.L.Arxaŋgelskiy **parafraza yoʻli bilan shakllanish bir denotativ maʼnoga asoslanishi, har bir komponent alohida denotativ maʼno kasb etmasligini taʼkidlaydi**⁶⁴. Parafraza yoʻli bilan:

⁶² Royzenzon L.I. Sintaksis i frazeologiya //Problemi sintaksisa.-Lvov.1963.s.49

⁶³ Shanskiy N.M. Frazeologiya sovremennogo russkogo yazika.-M., 1986.s.75.

⁶⁴ Arxaŋgelskiy V. L. Ustoychivie frazi v sovremennom russkom yazike.//Osnovi teorii ustoychivix fraz i problemi obney frazeologii. Rostov na Donu., 1964.s.221.

xatyn:bashtash - umr yoldash, jufti halal; yulnəmək-yyli bomaq, xotin olmoq, boshini ikkita qilmoq, turmush qurmaq; dymək- farzand kərmək, kəzi yarışmaq, balalı vomaq kabi evfemistik; əlmək-yastıg'ı qurıdı, djanı yzildi, janı chıqdı, gyni qutarıdı,gyni bitdi kabi disfemistik frazeologizmlar shakllanadi.

2.1.6. LEKSIK INTEGRATSIYA ASOSIDA SHAKLLANGAN DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLAR

Dialektal frazeologizmlarni shakllantirishda uning komponentlari qanday til birliklari ekanligi haqida **«xususiy ma'nolarini», «ma'no mustaqilligini», «so'zlik darajasini yo'qotadi», «xususiy ma'no kuchsizlanadi»⁶⁵** kabi talqinlar mavjud. Ammo shunga qaramay, frazeologizmlarning komponentlarini so'z deb atash zarurligi e'tirof etiladi. A.I.Molotkov esa, bunday fikrlarni rad etib, **«sifat jihatidan farq qiladigan so'zlarni komponentlar deb atab bo'lmaydi» deb ta'kidlaydi. «Frazeologik birliklarning komponentlari ma'lum darajada ma'no mustaqilligiga ega. Ular u yoki bu darajada frazeologik ma'noning yuzaga kelishida ishtirok etadi»⁶⁶.**

Ot va otlashgan so'zlarning fe'llar bilan birikuvidan *«buyurmoq-tashrif buyurmoq», «qo'ymoq-ko'ngil qo'ymoq», «ixlos qo'ymoq», «odam qo'ymoq», «mehr qo'ymoq», «bel bog'lamoq», «bog'lamoq-ko'ngil bog'lamoq», «tutmoq-ko'z tutmoq», «bo'yniga qo'ymoq», «yo'l tutmoq», «gəzida dutmaq», «esida dutmoq»* kabi dialektal frazeologizmlar shakllanagan. Bu xil birliklarning mantiqiy asosi tarkibidagi biror so'zning denotativ ma'nosiga tayanmaydi va ularning tarkibidagi qismlarining to'g'ri ma'nosidan kelib chiqmaydi. Demak,

⁶⁵ Qarang: Vinogradov V.V. Osnovnie tipi leksicheskix znacheniy slova // VYa, 1953, №5s.21; Smiritskiy A.I. Leksikologiya angliyskogo yazika,- M.,1956.s.207; Kunin A.V. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazika.-S.71; Raxmatullayev Sh. O'zbek tilida fe'l frazemalarining bog'lashuvi.- 6 b; Umarxodjaev M.I. Osnovi frazeografii.-Tashkent, 1983. s.27-40.

⁶⁶ Molotkov A.I. Osnovi frazeologii russkogo yazika.-s.62.

frazologizmlar shakllanishining bu turi soʻzlarning integratsiyasi (yaqinlashuvi, birlashuvi, bogʻlashuvi) tufayli yuz beradi.

U CH I N C H I B O B

DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK VA GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

Umumtil dialektal frazeologizmlarning mazmunan va ifodaviy jihatdan leksik qayta shakllanishi **qator ishlarda, ya'ni leksik, semantik, grammatik o'zgarishlari stilistik ehtiyoj natijasi deb qaraladi.** Aslida umumtil dialektal frazeologizmlarning bunday o'zgarishlarga duch kelishi til ichki tizimi ehtiyojiga bog'liqdir. Demak, **«Tildagi frazeologizmlarning taraqqiyoti va boyishi, tilning boshqa birliklarida bo'lganidek, faqat frazeologik neologizmlarning paydo bo'lishi bilan emas, balki mavjud iboralarning semantik, grammatik va funksional jihatdan yangilanishi asosida ham sodir bo'ladi»⁶⁷.** Bunda umumtildagi dialektal frazeologizm ham mazmun ifoda tomonidan o'zgarishlarga uchraydi.

3.1. DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLARNING LEKSIK QAYTA SHAKLLANISHI

Tilshunoslikda frazeologizmlarning leksik tarkibi barqaror, o'zgarmas, turg'un deb talqin etilib kelinmoqda. Ammo kuzatishlarning ko'rsatishicha, ularning leksik tarkibi nutq jarayonida turli o'zgarishlarga uchrashi mumkinligi aniqlandi. Bunday o'zgarishlar, birinchidan, so'zlovchining o'y-xayoli, maqsadini ifodalash ehtiyoji bilan o'zgartirilsa, ikkinchidan, leksik o'zgartirishlar frazeologik tizimga xos bo'lib, ular to'liq va qisqa shakliy ko'rinishlarga ega.

Dialektal frazeologizmlarda yuz beradigan turli tarkibiy va leksik-semantik o'zgarishlar sheva vakllarining qanday maqsadni ko'zlaganligi va umumtil frazeologizmlarning mantiqiy asosiga ko'ra individual frazeologizmlar yaratiladi: *vəpkəsin chəkə ilip alan.* Matndagi «*əpkəsin chəpə*

⁶⁷ Kuchkartaev I. Frazeologicheskoe novatorstvo Abdullil Kaxxara. Avtoref.diss.kand.filol.nauk.-Tashkent, 1965.; Yo'ldoshev B. Ko'rsatilgan dissertatsiya avtoreferati. -29-40b.; Qaxxarova X. Frazeologiya Abdullil Kadiri.Avtoref.diss. ...kand.filol.nauk.-Tashkent, 1985.

ilib alan» frazeologizmi umumtildagi «øpkəsin qoltyqlap», «øpkəsin əlinə ap» kabi frazeologizmlarning mantiqiy asosida yuzaga kelib, suhbatdoshga nisbatan oʻta salbiy munosabatni ifodalash maqsadida shakllangan. A.M.Babkin: **«Individual dialektal frazeologizmlar nafaqat milliy til frazeologik boyligi, balki adabiy tilning stilistik imkoniyatlarini ham ifodalovchi asosiy omillardan biridir»⁶⁸** deb taʼkidlaydi.

Leksik qayta shakllanish dialektal frazeologizmlarning ichki tizimiga xos boʻlib, bu jarayon nolisoniy va lisoniy omillar taʼsirida yuzaga keladi.. Dialektal frazeologizmlar koiponentlari ifodalagan tushunchalar, voqea-hodisalarning eskirganligi va boshqa sabablarga koʻra, uning biror komponentini yangisi bilan almashtirish ehtiyoji tugʻiladiki, bu nolisoniy omildir. Tilda, xususan, uning leksikada sodir boʻlib turadigan anʼanalar (oʻzbekchalashtirish, purizm va h) frazeologizmlar asosida soʻzlovchi obrazlarni yanada jonlantirish maqsadida ham dialektal frazeologizmlarning leksik va frazeologik tizimlarda muayyan oʻzgarishlar yuz berishi mumkin. Bu jarayon lisoniy omildir.

Tilshunoslikda frazeologizmlarning oʻzgaruvchanlik xususiyatlari **«struktural oʻzgarishlar»⁶⁹**, **«formal oʻzgarishlar»⁷⁰** kabi terminlar bilan atalgan. Chunki bu jarayonda dialektal frazeologizmlar nafaqat *«formal»*, *«struktural»*, balki semantik oʻzgarishlarga ham duch keladi.

3.2. TILNING RIVOJLANISH BOSQICHIDA DIALEKTAL FRAZELOGIZMLAR

Tarkibidagi u yoki bu komponent voqelikni faol ifoda qiluvchi yangi soʻzlar bilan almashtirish mumkin. Umumtildagi frazeologizmlarning komponenti keyingi

⁶⁸ Babkin A.M. Frazeologiya i leksikografiya//problemi frazeologii. Issledovaniya i materialy. -M,-L., 1964.s.15.

⁶⁹ Yoʻldoshev B. Koʻrsatilgan dissertatsiya avtoreferati. 31b.

⁷⁰ Molotkov A.I. Osnovi frazeologii russkogo yazika.-s.62-102.

voqelikka aloqador soʻz bilan almashtirilib, yangi tarkibli dialektal frazeologizm shakllanadi: Masalan, «*bərk al desə, bash amaq*», «*sach al desə, bash amaq*»: «*bırt a: dəsəñ bash amaq*» frazeologizmining «*daqıyasın a: desə,, bash amaq*» varianti xuddi shunday omil asosida yuzaga keladi. Bunda «*bərk*» soʻzining maʼnosi eskirib, sheva vakillarining hammasiga ham tushunarli boʻlmay qoldi. Shu bilan birga, hozirda ***bərkdan*** foydalanilmay qoʻyildi. Shunga koʻra, keyingi voqelik bilan bogʻliq boʻlgan «*daqıya*» doʻppi soʻziga almashtirish ehtiyoji seziladi. Shevalardagi «*bir iki chəkməni iləri dozdıрмаq*» frazeologizmining «*bir iki gəynəki iləri dozdıran*», «*bir kəsək vilən iki davshannı urmaq*» frazeologizmining «*bir oq vilən iki davshannı urmaq*», «*gəpə kırtə giydirmək*» frazeologizmining «*gəpə shlyəpa giydirmək*»; «*gəpə benzin quymaq*»; «*pyızıldravuqa uıçe bərmək*» variantlari bevosita yuqoridagi holat asosida shakllangan.

3.3 DIALEKTAL FRAZEOLOGIZM TARKIBIDAGI OʻZLASHMA SOʻZLAR

Asli oʻzbekcha (umumturkiy) soʻzlar bilan almashtiriladi: «*bagʻrı xun voldı-bagʻrı qan voldı*», «*dili qan-yırrəgi qan*», «*bələgə duchar volmaq*» «*bir bələgə giriftar volmaq - bələgə yoluqmaq- bələgə qamaq*», «*bərdər-bərdar qımaq - gətər-gətər qımaq*», «*gərdanının chıqazıb tashamaq-boynının agʻdarıp dashlamaq*» kabi dialektal frazeologizmlar tarkibidagi oʻzlashma soʻzlarning oʻzbekcha muqobili mavjudligi hamda tilda sodir boʻlib turadigan oʻzbekchallashtirish, purizm kabi anʼanalar taʼsirida roʻy beradi.

3.4. BIR MAVZU GURUHGA KIRUVCHI SOʻZLARGA ALMASHTIRISH

Kuzatishlar almashtirilgan soʻzlar bir tematik guruhga kiruvchi sinonim soʻzlar ekanligini koʻrsatadi. Bunda umumtil frazeologizmi bilan yangi

shakllangan dialektal frazeologizmlar bir obrazga asoslanishi bilan xarakterlanadi. YAngi dialektal frazeologizmlarning shakllanishi nutq ehtiyoji va zarur emotsional-ekspressiv ottenkani hosil qilish zaruriyati asosida yuzaga keladi. Masalan, «*ag‘zynyň tanaby qachdy*», «*ag‘zynyň bag‘y qachdy*», «*ag‘zynyň naqy(ipy) yzilmäk*» variantli dialektal frazeologizmlar tarkibidagi «*tanap*» va «*bog‘*», «*naq*» komponentlari bir mavzu guruhga kiruvchi so‘zlar almashtirilib qo‘llanilishi natijasida leksik qayta shakllangan. «*yadyňan gətärilmäk-esidən kətärilmäk-esidan chyqmaq-esidən qachmaq*», «*jähli chyqdy-adjyg‘y gäldi-adjyg‘y chyqdy*», «*jini qozydy-jini dutdy-jini gäldi*» kabi qator frazeologizmlarning bir komponenti shu mavzu guruhga kiruvchi, ma’no jihatidan umumtil frazeologizmlarining komponentiga yaqin so‘z bilan almashtirilib, yangi tarkibli dialektal frazeologizmlar shakllanadi. Bunda bir obrazga asoslangan frazeologik variantlar yuzaga keladi.

Bir mavzu guruhga tegishli so‘zlar almash qo‘llanilib, turli obrazlar asosida frazeologik sinonimlar shakllanadi: «*maňlayyn (peshonasini) siypamaq-bashyn siypamaq*», «*əmələ ashmaq-yyzəgə ashmaq-i:shə ashmaq*», «*quvanchy ichinə syg‘mydy-syynishi ichinə syg‘mydy*» kabilar.

3.5. KONTAMINATSIYA HODISASI

YAngi frazeologizmlarning shakllanishida kontaminatsiya hodisasi muhim vositalardan biri hisoblanadi. **«Frazeologik kontaminatsiya sekin shakllanadigan jarayon bo‘lishiga qaramay, tilning frazeologik tarkibi boyishida mahsuldor usullardan biridir»⁷¹. Kontaminatsiya «biror assotsiatsiyaga ko‘ra, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki so‘z yoki iborani birlashtirish yo‘li bilan yangi so‘z yoki iboranining hosil bo‘lishidir»⁷². Ma’no va tarkib jihatidan bir-biriga yaqin dialektal frazeologizmlarning ma’lum**

⁷¹ Selivanov G.A. Frazeologiya kontaminatsiya kak odin iz pokazateley strukturnogo razvitiya russkogo yazika//Voprosi semantiki. Chast1.Novgorod, 1971.s.233

⁷² Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. 45b

komponentlari birlashib, yagona bir shaklda ishlatiladi. Bu holda ikki frazeologizmdan birining tarkibidagi muayyan komponent tushib qoladi: «kəḡnində:kəvnində qasam ishdi», «kəḡlinə: kəvninə duyib (tugib) qoydı». Matnda umumtildagi «kəvninə dıymək (diliga tugmoq)» va «qasam ichmoq» frazeologizmlarining o‘zaro kontaminatsiyasi asosida «kəvnində (dilida) qasam ichmək» frazeologizmi yuzaga keladi.

3.6. HUDUDIY YOKI IJTIMOY O‘ZIGA XOSLIKLARNI IFODA ETISH

Bunday ehtiyoj asosida komponentlar qayta shakllantiriladi. Masalan, adabiy tildagi «*onasining boshiga yostiq bo‘lmoq*» frazeologizmi «*ənəsiniḡ bашына təka volmaq*» kabi atalishi, adabiy tildagi «*childirmasiga o‘ynamoq*» frazeologizmining To‘rtko‘l, Ellikqal’a tumanlarida «*dəpinə oynamaq*», «*surḡayыna oynamaq*», «*namasыna oynamaq*» Samarqand hududida «*dapiga o‘ynamoq*» kabi; «tuxum bosib yotmoq» va b..Qoraqalpog‘iston Respublikasi qipchoq tip shevalarda «*məyək basыр djatmak*», «*jədjə: chıdjə basыр djatmaq*», Samarqand (qipchoq) hududida «*mayak bosib yotmoq*» kabi atalishi, adabiy tildagi «*chakagini o‘chirmoq*» frazeologizmi o‘rganilayotgan shevalarda «*iyəgin əchirmək*», «*dytinin : tytinin yəchirmək*», Samarqand hududida «*iyagini o‘chirmoq*» kabi nomlanishi u yoki bu hududning ijtimoiy o‘ziga xosliklarini ifoda etishga maxsuslashtirish ehtiyoji asosida paydo bo‘lgan.

3.7. DIALEKTAL FRAZEOLGIK ELLIPSIS

Bunda hodisa tashqi shaklni takomillashtiruvchi vosita sanaladi. Sh.Balli o‘zining tadqiqotlarida «**ellipsisni frazeologik shakllanishning usullaridan biri**»⁷³-deb atagan edi. Ma’lumki, «**ellipsis nutq elementining tushib**

⁷³ Balli Sh. Frantsuzskaya stilistika. -Izdatlestvo inostrannoy literaturi.1961.s.183.

qolishidir»⁷⁴, shu bilan birga matniy va ma'noviy tahlil asosida qayta tiklanishi yoki matndan anglashib turuvchi hodisadir. Quyidagi: **Buni qarang, odamning olasi ichinda.mal alası dıshında** Matnda umumtildagi «mol olasi ichida» yoki «сығып вılmәғән атың, dашынан аймама» frazeologizmining birinchisi ellipsisga uchraydi.

2. Semantik qayta shakllanish frazeologik ichki tizimga xos bo'lgan hodisadir.

Bu jarayon ikkilamchi transpozitsiyaning bir ko'rinishi bo'lib, bunda umumtil frazeologizmining shakli o'zgarmaydi, balki uning ma'nosida siljish ro'y beradi. Frazeologik semantik qayta shakllanish leksik qayta shakllanishga o'xshaydi. Ammo frazeologik qayta shakllanishda «**asos ma'no ko'chma ma'no (obrazli) ma'no bo'ladi**»⁷⁵. Masalan, umumtildagi «*ko'cha changg'itib*» frazeologizmi «*foydali, natijali ish bilan shug'ullanmay*» (O'TFL) ma'nosini ifodalaydi. Hozir esa bu frazeologizmning yangi ma'nosi shakllandi: **Nodir ularni Nabiga maktabdagi bir ko'rpani tepkilab, bir ko'chani changitib katta bo'lgan do'stlarim deb tanishtirdi.** «*Bir ko'chani changitib*» frazeologizmi «*yaqin maslakdosh, do'st*» ma'nosida qo'llanilgan.

«**FBlarni semantik o'zgarishlar bilan qo'llashning samarador usullari FB ichki formasining aktualizatsiyasi bilan bog'liq, ya'ni FBga asos bo'lgan erkin birikma ma'nosi ibora tarkibida yana qayta jonlantiriladi**»⁷⁶. Masalan, umumtildagi «*djar samaq*» frazeologizmi «*qattiq gapirmoq*» ma'nosida ishlatiladi. Turli sintaktik qurshovda esa xuddi shu tarkibli frazeologizm boshqa ma'noda qo'llaniladi: Ushbu matnda «*djar samaq*» frazeologizmi «*tanilgan, ma'lum, mashhur*» ma'noda qo'llanilib, semantik qayta shakllanish yuz beradi. Shuningdek, «*djar samaq*» iborasi biror pinhoni narsa yoki voqeani hammaga oshkor qilmoq ma'nosini ham ifodalaydi.

⁷⁴Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. 45b

⁷⁵Raxmatullayev Sh. Leksikologiya bilan frazeologiya.-Hozirgi o'zbek adabiy tili.104-bet.

⁷⁶Yo'ldoshev B. Ko'rsatilgan dissertatsiya avtoreferati. 34b.

3. Leksik-semantik qayta shakllanishda esa umumtil frazeologizmining qisman leksik tarkibi va qisman ma'nolari o'zgarishga uchraydi va yangi frazeologizmlar shakllanadi.

1) frazeologizm ma'nosiga aloqador komponentlarning bog'lashuvi natijasida dialektal frazeologizmlar shakllanadi. Bu hol esa frazeologik uyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Masalan, «qavag'ın samaq», »qavaqын asıltırmaq» dialektal frazeologizmining obrazini va ma'nosini rivojlantirish asosida: «qavaqын өймәк»---«qavaq salıq»---«qavaqы dushib getән»---«qavaqыnan qar yaqadı»---«qavaq tumshug'ы asıldı» -«mañlay-qavag'ы mushtay» kabi dialektal frazeologizmlar shakllangan. Bu o'rinda bir obraz atrofida turli komponentlarning bog'lashuvi asosida dialektal frazeologizmlar yuzaga kelgan.

2) obrazlarni qarama-qarshi qo'llash asosida dialektal frazeologizmlar shakllanadi. Leksik-semantik qayta shakllanish jarayonida bu usul eng mahsuldor hisoblanadi. Til dialektikasiga ko'ra, «**antonimlar bir tomondan bir-birini inkor qiladi, ikkinchi tomondan bir-biriga bog'liq bo'ladi**»⁷⁷. Antonimli juftlar bir vaqtning o'zida paydo bo'lishi mumkin. Ammo ko'p holatlarda oldin juftlardan biri paydo bo'lib, qarama-qarshi sifatida ikkinchi dialektal frazeologizm shakllanadi. Antonimli dialektal frazeologik shakllanish leksik antonimlarga asoslanadi. Bunda juft frazeologizmlarning tarkibida antonim so'zlar mavjud bo'ladi: «nanı yartı boldı - nanı pytynländi», «bag'ri tar - bag'ri keng», «dunyodan taq өtmәk - dunyadan jup өtmәk», «gөzinә ыssы gorinmәk -gөzinә savыq gөrinmәk»; «qashы-qavag'ы achıldı-qashы-qavag'ы yyyldı:yymyldı» kabilar shular jumlasiga kiradi.

Antonimli so'zlar dialektal frazeologizmlar tarkibida ishtirok etmasligi ham mumkin. Bunday holatlarda «**antonimiya iboradan anglashiladigan lug'aviy ma'no asosida belgilanadi**»⁷⁸. Antonimik qatorlarning shakllanishi leksik-semantik qayta shakllanish asosida yuz beradi: «gәvidә durmaq-gәvinән qaytmaq»,

⁷⁷ Vvedenskaya L.A. Problemi leksicheskoy antonimii i printsipi sostavleniya slovaryā antonimov. Avtor.dok.diss. Rostov na Donu, 1973 s.13.

⁷⁸ Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati.-6b.

«gap qaytarmaq-saval bərmək», «dunyag'a gəlmək-göz yummaq», «durmusha chıqmaq-erdan qaytmaq», «esi əzinə gəldi-xushini yoqatmaq» kabilar.

3.8. DIALEKTAL IBORALARNING SEMANTIK TABIATI

3.8.1. FRAZEOLGIK MA'NO

Tilda ham shakl va ma'no bor. Tilda shakl deb odatda tilning materiyasi tovush ko'zda tutiladi. Buni tilning ifoda plani deb ham yuritiladi. Tovush yozuvda harf bilan ko'rsatiladi. Shu asosda talaffuz shakli va yozuv asosiy shakldek tuyiladi. Asli til-tovush tili, yozuv-shu tovush tilini grafik ifodalash sistemasi, shu tovushning soyasi. Masalan, **qo'l** so'zining shakli (ifoda plani) **q, o', l** harflari bilan yozib ko'rsatiladigan shu uch tovushning xuddi shunday tuzumiga teng.

YOlg'iz shaklning o'zi hali til birligi emas. Til birligi bo'lish uchun ma'lum shaklga ma'lum bir ma'no birkirilgan bo'lishi lozim. Bunday ma'no til birligining mazmun plani deb yuritiladi. Bunday ma'noni biror shakl nutqning o'zida (nutq bosqichida) kashf etmaydi, balki bunday ma'no biror shaklga tilda (til bosqichida) birlashtirilgan bo'ladi, nutq shuni qalqitib beradi. Masalan, **qo'l** so'zi qolym *zyrqyırab ag'rvatııptı* gapida «**kishi tanasida elkadan boshlanib, barmoqlar bilan tugaydigan, ushlash, ko'rsatish kabi vazifalarni bajaradigan a'zo**» ma'nosini anglatadi. Demak, ma'lum shakl (**qo'l** tovush tuzumi) va ma'lum bir ma'no birgalikda til birligini gavdalantiradi.

Ma'lum shaklga ma'lum bir ma'noning birlashtirishi affikslarga (morfemalarga) ham xos. Masalan, *boradi* so'zi tarkibidagi **-di** morfemasi «**III shaxs**» ma'nosini, **-a** morfemasi «**kelasi-hozirgi zamon**» ma'nosini ifodalaydi. Bunday morfemalarning ma'nosiga grammatik ma'no deyiladi. Shu so'z tarkibidagi **bor-** qismidan esa tamoman boshqa tur ma'no anglashiladi. Bu qism «**makondagi yaqin nuqtadan uzoqdagi nuqtaga harakatlanib yo'nalish**» ma'nosini anglatadi. Biror predmetni, harakat-holatni yoki shularga mansub belgi-xususiyatlarni nomlovchi bunday ma'noga leksik ma'no deyiladi. Leksik ma'noni

anglatuvchi birlikka leksema deyiladi. Grammatik ma'noni ifodalovchi birlikka morfema deyiladi. So'z ayni vaqtda ham leksik, ham grammatik ma'noga ega bo'ladi, demak, so'z odatda leksema va morfemadan tuziladi.

Iboralar ham ifoda planiga va mazmun planiga ega. Sodda morfemada uning ifoda plani deb tovush ko'rsatilsa, murakkab (qo'shma) morfemada uni tashkil toptirgan morfemalar ko'zda tutiladi (-chilik-chi+liq kabi). Shuningdek, tub leksemada uning ifoda plani deb tovush tuzumiga aytilsa, yasama leksemada uning tarkibidagi leksema va morfemalar ko'zda tutiladi: talabchanlik (talab+chan+lik).

Ko'rinadiki, tub til birliklarida (morfemalarda, leksemalarda) ifoda plani deb tilning material birliklari-tovush olinadi: tarkibli (murakkab, yasama) til birliklarida esa ular tarkibidagi til birliklari ko'zda tutiladi.

Ibora yirik til birligi bo'lib, kamida ikkita mustaqil turkum leksemasidan (so'zlardan) tarkib topadi. Shunga ko'ra, iboraning ifoda plani deb leksemalar va ularni bog'lash uchun xizmat qiladigan morfemalar ko'zda tutiladi.

Tarkibli leksema va morfemaning ma'nosi odatda uni tashkil qiluvchi til birliklariga xos ma'nolarning yig'indisi sifatida gavdalanadi, qismlar ma'nosi asosida butunning ma'nosi tushuniladi.

Ibora ham tarkibli til birligi, lekin uning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi. Iboraga xos ma'no tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga nisbatan maxraj ma'no, ustama ma'no sifatida gavdalanadi, bu ma'no ibora tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga suyanmasligi ham mumkin. Iboraning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmasligi, shular ustiga qurilgan yangi bir ma'no bo'lishi sababli iboralarda go'yo bo'lmasligi, ifoda plani bilan mazmun orasida qandaydir uzilish sodir bo'ladi.

Xususiy (qismlarga xos) ma'nolar umumiy (iboradan anglashiladigan) ma'noni to'g'ridan to'g'ri izohlab turmaydi, shu sababli iboralarda ifoda plani bilan mazmun plani orasidagi bog'lanish shartlilik kashf etadi. Bu erda bittadan

ortiq soʻz (leksema) yaxlitligicha maʼlum bir obraz asosida koʻchirish yoki tadbiiq yoʻli bilan semantik taraqqiyotni boshdan kyechiradi. **Maʼlum bir obraz asosida yuzaga kelgan ana shunday ustama koʻchma maʼnoga frazeologik maʼno deyiladi.** Masalan, «dil teizməq» iborasi «shaʼniga nomunosib, nohaq gap aytmoq» maʼnosidan kelib chiqmaydi. Erkin birikma sifatida masalan, *Batareyaga dil teizsəm, hech toki yoq əkən* kabi gaplarda ishlatiladi. Bunday ishlatilishda til va tegizmoq soʻzlari maʼno mustaqilligini saqlab bogʻlanadi, maʼnoda yaxlitlanish yuz bermaydi. *Gechagi yığʼnaqda maḥada dil teizibdi* gapi tarkibida yuqoridagi erkin birikma emas. balki ibora qatnashadi. Chunki bu gapda til va tegizmoq soʻzlaridan emas, balki til tegizmoq iborasidan foydalanilgan. Endi bu erda til va tegizmoq soʻzlariga xos maʼnolarning oddiy yigʻindisi haqida emas, balki qandaydir ustama koʻchma maʼno haqida gapirish lozim. Bunday maʼno obrazga suyanib yuzaga keladi: tegizish harakatidan kelib chiqsak, til deganda fiziologik organi tushunish kerak, ammo bu erda til soʻzi boshqa maʼnosi («nutq» maʼnosi) bilan qatnashadi, tegizmoq feʼlining maʼnosi «nutq»ni «gap, soʻz» darajasiga oydinlashtiradi. Ayni vaqtda biror soʻz, gapni begʻaraz aytish emas, «tegizib» aytish koʻzda tutiladi, shundan aytiladigan soʻz-gaplarning «nomaqbul» boʻlishi kelib chiqadi va boshqalar. Yuqoridagi obrazli tasavvurlar oqibati sifatida ayrim-ayrim soʻzlarning maʼnosi ikkinchi planga oʻtib, birikmadan yaxlitligicha yangi bir maʼno anglashiladi. Ana shunday maʼno frazeologik maʼno boʻladi.

Demak, frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun planining oʻziga xos qarama-qarshiligi va birligi asosida yuzaga keladi, shunga koʻra frazeologik birliklar alohida yondoshishni oʻrganishni talab qiladi.

3.8.2. DIALEKTAL FRAZELOGIK POLISEMIYA

Bittadan ortiq maʼnoni anglatuvchi til birliklariga umuman xos xususiyatlardan boʻlib, iboralarning ham talay qismida uchraydi. Polisemantik

dialektal iboralarning ko‘pi, xuddi adabiy tilimizdagidek, ikki ma’noli, uch ma’noli iboralar ham uchraydi. Masalan, ***bash(i)na qılıych gəsəm*** iborasi bitta ma’noli (har qanday sharoitda ham) anglatadi, ***aql(i) etədi*** iborasi ikkita ma’noli anglatadi: 1) idrok etmoq, 2) ishonch hosil qilmoq.

Dialektal frazeologik polisemiyada ham, xuddi leksik polisemiyada bo‘lganidek, bosh (asos) ma’no va yasama (hosila) ma’no farq qilinadi. **Leksik polisemiyada asos ma’no to‘g‘ri ma’noga, hosila ma’no esa ko‘chma ma’noga teng, frazeologik polisemiyada asos ma’no ham ko‘chma ma’no (obrazli ma’no) bo‘ladi. Chunki har qanday frazeologik ma’no ustama, ko‘chma ma’no sifatida yuzaga keladi.**

Dialektal frazeologik birliklarda ma’no taraqqiyoti ikki usul: ko‘chirish va tadbiq usuli bilan amalga oshiriladi. **Ko‘chirish usullaridan metafora asosiy o‘rinni egallaydi. Masalan, *kəvn(i) gətərmiydi:kəvni kysəmiydi:djini syymiydi*** iborasi birinchi ma’nosida «eb-icha olmaslik» narsalarga nisbatan ishlatiladi, ikkinchi ma’nosida esa «yoqtirmaslik» bu iborani ovqatdan boshqa narsalarga ko‘chirish asosida shakllangan.

Ko‘p ma’noli iborada uning ma’nolari asosan biri ikkinchisidan o‘sib chiqqan bo‘ladi. Masalan, *bel baylamoq*, iborasi uch ma’noli bo‘lib, 1) shaylanmoq, 2) astoydil kirishmoq, 3) ahd qilmoq. Ikkinchi va birinchi ma’nosidan uchinchi ma’nosi ikkinchi ma’nosidan o‘sib chiqqan.

Ba’zi iboralarda uning ma’nolari biri ikkinchisi uchun asos vazifasini o‘tamaydi, har biri o‘zicha shakllangan bo‘ladi, voqelikdan har xil obraz olish asosida yuzaga keladi. Frazeologik ma’nolar bir-biridan o‘sib chiqmaganligini, jumladan, ibora tarkibidagi bir so‘z-komponentining boshqa-boshqa leksik ma’noda qatnashuvi bilan izohlash mumkin. **Masalan, *xəyalına gəlmək*** iborasi **ikki ma’noli: 1) «o‘ylamoq, idrok qilmoq, fahmlamoq», 2) «xotirasida tiklamoq».** Bu ibora tarkibidagi xayol so‘zi birinchi frazeologik ma’noda, «o‘y, fikr» ma’nosi bilan, ikkinchisi frazeologik ma’noda esa «xotira»

ma'nosi bilan qatnashgan. Umuman, ma'nolari biri ikkinchisidan o'sib chiqmagan iboralarda ma'no taraqqiyoti omonimiyaga juda yaqin turadi.

3.8.3. DIALEKTAL FRAZEOLOGIK SINONIMIYA

Sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, leksemalar, morfemalar bilan bir qatorda, dialektal iboralar orasida ham anchagina. Ikki iborani o'zaro sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolik teng ma'nolilik emas. Har bir sinonim, shu sinonim qatori uchun umumiy ma'no o'zanidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'lishi mumkin.

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqlanadi, shulardan biri ma'no qirrasidagi farq bo'lishi mumkin. Masalan, **er vilən yəksən ətmək -yer minən yəksən bolmaq** iborasi *kylini gəkkə savurmaq-kyli gəkkə savurıldı-kyli asmana uchdı-kyli gymdan völdü-kyli yer təyinə kirdi:kylin sachdı:kylin suvırdı* iborasiga sinonimdir. Bu sinonimlar boshqa belgi xususiyatlarida farq qilishidan qat'i nazar ma'no qirrasida farq qiladi. ikkinchisida ma'no bir qadar kuchli ifodalanadi. Shuningdek, **kəvni bosh va kəvni yymshaq** iboralari o'zaro sinonimdir, **«rahmdil, ko'ngilchan»** degan ma'nolarni anglatadi. Dialektal frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa-boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, **bir ag'ız, bir shıngıl, bir chimdim** sinonim iboralari asosida har xil obrazlar yotadi: so'zlash organi-uzub boshining bir qismi-chimdib olinadigan miqdor.

Sinonim iboralarni bir iboraning variantlaridan ajratish kerak. Buning uchun iboralarining so'z-komponentlariga diqqat qilish lozim. leksik tarkibida ayni bir so'z-komponent qatnashmaydigan iboralarining sinonim ekani shubha tug'dirmaydi. Masalan, **«butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha»** ma'nosini anglatadigan naqıman iynəsınədeyin, mirinən sirinəchiyin, yshiginən

dʏshikinach lli, itin n bitin ch lli, q lyman quutyg ynachall y iboralari o zaro sinonim bo lib, ular tarkibida umumiy so z-komponent yo q.

Sinonim iboralar leksik tarkibida biror komponent ayni shu so z bilan ifodalangan bo lishi mumkin. Ammo bunda iboralar tarkibidagi boshqa-boshqa so z bilan ifodalangan komponentlar o zaro sinonim bo lmasligi shart. Aks holda bir iboraning variantlariga teng bo ladi. Masalan, **janym qoltyqlab** va **yyr kin  lin  alyb**-sinonim iboralar: bir leksik komponenti ayni bir so z bilan ifodalangan, ikkinchi leksik komponentga esa boshqa-boshqa so z bilan ifodalangan va bular o zaro sinim emas. **K vnin  d ym k** bilan **yyr gin  d ym k** o zaro bir iboraning variantlariga teng, chunki bir leksik komponenti ayni bir so zning o zi bo lib, ikkinchi leksik komponenti esa o zaro sinonim .

Sinonimiya- ma no asosida belgilanadigan hodisa. Ayni bir ma nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatda polisemantik ibora qatnashsa, iboradan emas, balki aniq frazeologik ma nodan chiqib kelib fikr yuritish lozim. Chunki har bir frazeologik ma no o zicha sinonimga ega bo lishi yoki ega bo lmasligi mumkin. Masalan, monosemantik **dan amaq** iborasiga polisemantik **boynyna amaq** iborasi birinchi ma nosida sinonim bo ladi. Bu uch ma noli iboraning ikkinchi ma nosiga sinonim yo q, ammo uchinchi ma nosiga ** stin  amaq : lk sin  amaq;moynyna amaq** iborasi birinchi ma nosida sinonim.

Bir sinonimik qatorga birlashuvchi iboralarning miqdori ham har xil: ko pchilik sinonimik qatorlar ikki sinonimli; uch sinonimli qatorlar ham anchagina; to rt iborani birlashtiruvchi qator ham bor. Masalan, **ta zir(i)ni emoq** iborasi qatnashadigan qator ikki sinonimdan, ** sin  d shm k** iborasi qatnashadigan qator esa to rt sinonimdan iborat.

Bir qatorga birlashuvchi frazeologik sinonimlar nutqda oz-ko p ishlatilishi jihatidan ham farqlanib turadi. Masalan, yuqorida ta kidlangan to rt sinonimli qatorda ularning nutqda uchrash nisbati shunday: **50:7:3:1** (to plangan faktli materiallardagi miqdori quyidagicha: **250:35:15:5**).

Sinonimik kriteriylarni aniq belgilamaslik tufayli yaqin ma'noli iboralarni sinonim deb tushunish xavfi tug'iladi. Masalan, **avzayy buzıldı va kəyfi qachdı, yrəsi ujdı** iboralari juda yaqin ma'noni anglatadi: har ikkisida ham kishining ruhiy holatidagi o'zgarish ko'zda tutiladi. Chuqurroq yondashsak, birinchi iborada kishining tashqi qiyofasida tahdid, hujumkorlik alomatlari paydo bo'lgani aks ettirilsa, ikkinchi iborada yaxshi yoki normal kayfiyatning yomon kayfiyatga aylanishi bildiriladi. Bunday yaqin ma'noli iboralar tilda anchagina bo'lib, ularning ma'nolarini to'g'ri tushunib, har birini o'z o'rnida ishlatish kerak.

3.8.4. DIALEKTAL FRAZEOLGIK ANTONIMIYA

Dialektal antonimlar ham til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, iboralarda ham so'zlardagi darajada uchraydi. Dialektal antonimlarni belgilash, bir tomondan, iboralarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchi tomondan, polisemiya bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashda yordamlashadi, uchinchi tomondan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.

Barcha leksik komponentlari boshqa-boshqa so'z bilan ifodalangan komponentlar orasida antonimiya shubha tug'dirmaydi: **saval barmək va javab bərmək; yerə urmaq va gökkə gətərmək:asmana gətrmək** kabi. Birinchi antonimlar tarkibidagi har ikki so'z-komponent, ikkinchi antonimlar tarkibidagi birinchi so'z-komponentlar o'zaro antonimdir. Mana bu antonim iboralar tarkibidagi birinchi so'z-komponentlar-ayni bir so'zning o'zi, ikkinchi so'z-komponentlar esa antonim: **peyli geḡ va peyli dar, kəvni geḡ va kəvni tar. əli achıq: əli yumuq** Boshqacha bir misol: **kəvni jayına dıshdı- yırəkina g'alg'ula dıshdı**. Bu antonim iboralar tarkibidagi so'z-komponentlarning uchinchisi ayni bir so'z, birinchisi o'zaro sinonim, ikkinchisi esa antonim o'zaro ma'no munosabati hosil qilmaydi. Ko'rinadiki, antonim iboralar tarkibidagi antonim so'z-komponentlar bu iboralarning o'zaro antonim bo'lishida muhim rol o'ynaydi;

ammo barcha antonim iboralar tarkibida antonim soʻz-komponentlar qatnashavermaydi. Antonim iboralardan yaxlitligicha anglashiladigan lugʻaviy maʼno asosida belgilanadi.

Sinonimiyada boʻlganidek, antonimlarda ham polisemantik iboralarda har bir frazeologik maʼnoga nisbatan alohida belgilanadi. Polisemantik iboraning bir maʼnosiga antonim bor boʻlishi, boshqa maʼnosiga esa yoʻq boʻlishi mumkin. Masalan, **saval bərmək** monosemantik iborasidagi besh maʼnoli **javab bərmək** iborasining birinchi maʼnosi antonim (qolgan toʻrt maqnosiga frazeologik antonim yoʻq).

Sinonim qatordagi bir iboraga antonim deb belgilanadigan ibora shu qatordagi boshqa sinonimlarga ham antonim boʻladi. Har bir sinonim antonim sifatida ayni bir iborani keltirish bilan sinonimiya toʻgʻri belgilanganligini tekshirib koʻrish mumkin.

UMUMIY XULOSALAR

Tadqiqotning yakunlovchi qismi ish bo'yicha chiqarilgan umumiy xulosalardan iborat.

1. Hozirgi paytda frazeologizmlar tilning turli sathlarida o'rganilmoqda va keyingi yillarda muayyan yutuqlarga erishdi. Frazeologizmlarning grammatik tabiati semantik xususiyati, stilistik imkoniyatlari o'rganildi, frazeologik lug'atlar va o'quv darsliklari yuzaga keldi. Yirik hajmdagi tadqiqotlarning yuzaga kelishiga qaramay, dialektal frazeologiya o'zbek tilshunosligining yosh sohaligicha qolmoqda. Dialektal frazeologizmning o'rganish obyekti, paydo bo'lishi, manbalari, frazeologik semantik bog'lashuv, ideografik semalar tahlili, frazeologik etimologiya, qiyosiy o'rganish, dialektal frazeologizmlarning pragmatik va kommunikativ imkoniyatlarini o'rganish kabi masalalar hozirgi o'zbek shevashunosligi frazeologiyasi oldida turgan dolzarb muammolar hisoblanadi.

2. Dialektal frazeologizmlar tuzilishi, leksik-semantik, funksional-uslubiy va sintaktik vazifalariga ko'ra, tilning boshqa birliklaridan ajralib turadi. Shunga ko'ra, ular alohida leksik birlik sifatida o'ziga xos shakllanish qonuniyatlariga ega. Dialektal frazeologizmlarning shakllanishida ham nolisoniy va lisoniy omillar farqlanadi. Dialektal frazeologik shakllanish til elementlarining, xususan, ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro uyushib, yangi til birligini yuzaga keltirish jarayonidir. Dialektal frazeologik shakllanish til vositalari yordamida frazeologizmlar hosil qilishning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganadi.

3. Dialektal frazeologizmlar xam narsa-hodisalar, voqealar, xarakterlarni obrazli-ekspressiv ifodalash, ehtiyoji asosida yuzaga keladi. Dialektal frazeologizmlarning paydo bo'lishi va shakllanishi muayyan tarixiy jarayonlar, ijtmoy muhit, o'zbek turmushidagi hayotiy voqelik va undan kelib chiquvchi tasavvurlarni obrazli tarzda aks ettirish bilan aloqador bo'ladi. Dialektal frazeologik shakllanish frazeologik tizimning uzviy qismi bo'lib, so'z yasalihi

bilan bir qatorda umumiy til tizimiga kiradi. Dialektal frazeologizmlar ham ikkilamchi til hodisasi bo'lib, ular semantik hodisadir. Chunki frazeologizmlar erkin bog'lanma yoki gapni ko'chirish, o'ziga xos bo'lmagan vazifada qo'llash asosida shakllanib, bu til birliklaridan ma'no nuqtai-nazaridan farqlanadi.

4. Dialektal frazeologizmning shakllanish xususiyatlarini anglash uchun ularning mantiqiy (motivatsion) asosini belgilash lozim. Ular quyidagilar: **1) so'zlarning mantiqiy asosi; 2) erkin bog'lanma va gaplar; 3) umumtil frazeologizmlari; 4) o'zga til materiallari.**

Dialektal frazeologizmlar ham ikkilamchi til hodisasi bo'lganligi uchun ham to'rt derivatsiya birlamchi til birligi bo'lib, ularning shakllanishi uchun asos hisoblanadi. Tadqiqotlar frazeologik shakllanishning uch asosiy jarayoni mavjudligini ko'rsatadi: a) integratsiya va differensiya, ya'ni so'zlarning o'ziga xos kombinatsiyalari asosida til birligi yuzaga keladi; b) semantik qayta shakllanish yoki frazeologik transpozitsiya, ya'ni erkin bog'lanma yoki gapni o'ziga xos bo'lmagan ma'no va vazifada qo'llash; v) umumtil frazeologizmlari asosida yangi dialektal frazeologizmlarning shakllanishi yoki frazeologik modernlashtirish.

5. Dialektal frazeologizmlar ham erkin bog'lanmalarni ularga xos bo'lmagan ma'noda qo'llash asosida shakllanadi. Bu jarayon tilshunoslikda frazeologik transpozitsiya deb ataladi. Frazeologik transpozitsiya jarayonida erkin bog'lanmalarning semantik va grammatik o'zgarishlari muvoziy holda yuz beradi. Erkin bog'lanma shakllangan frazeologizmlar ma'nosining mantiqiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Frazeologik shakllanishda alohida olingan so'zlar ham mantiqiy asos sifatida qatnashishi mumkin. Bu jarayonda frazeologik differensiya va leksik integratsiya asosida dialektal frazeologizmlar shakllanadi. Frazeologizmlar faqat frazeologik neologizmlarning paydo bo'lishi bilan emas, balki tilda mavjud frazeologizmlarning semantik, grammatik va funksional jihatidan yangilanishi asosida ham shakllanadi. Frazeologizmlarning shakllanishida ro'y beradigan

leksik, grammatik, semantik o'zgarishlar faqatgina stilistik ehtiyoj bo'lmasdan, balki til ichki tizimining ehtiyoji hamdir.

6. Dialektal frazeologik shakllanish masalalarini tadqiq etish badiiy asar tilidagi individual-muallif frazeologizmlarni aniqlash imkonini yaratadi. Kelajakda esa individual-muallif frazeologizmlarini o'rganish, ularning ma'no qirralarini aniqlash, individuallikdan umumtillikka o'tish jarayonini belgilash, shuningdek, ularni frazeologik lug'atlarga kiritish kabi masalalar frazeologik tilshunoslar e'tiborida bo'lmog'i lozim.

7. Tilshunoslikda frazeologizmlarning o'zgaruvchanlik xususiyatlari «**struktural o'zgarishlar**»⁷⁹, «**formal o'zgarishlar**»⁸⁰ kabi terminlar bilan atalgan. Mazkur ishda esa leksik qayta shakllanish terminidan foydalanish ma'qul ko'rildi. Chunki bu jarayonda dialektal frazeologizmlar nafaqat «*formal*», «*struktural*» o'zgarishlarga, balki semantik o'zgarishlarga ham uchraydi.

8. Iboralar ham ifoda planiga va mazmun planiga ega. Sodda morfemada uning ifoda plani deb tovush ko'rsatilsa, murakkab (qo'shma) morfemada uni tashkil toptirgan morfemalar ko'zda tutiladi (-chilik-chi+liq kabi).

9. Sinonimik kriteriylarni aniq belgilamaslik tufayli yaqin ma'noli iboralarni sinonim deb tushunish xavfi tug'iladi. Masalan, **avzayy buzıldı va kəyfi qachdı, yrəsi ujdı** iboralari juda yaqin ma'noni anglatadi: har ikkisida ham kishining ruhiy holatidagi o'zgarish ko'zda tutiladi.

10. Dialektal antonimlar ham til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, iboralarda ham so'zlardagi darajada uchraydi. Dialektal antonimlarni belgilash, bir tomondan, iboralarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga, ikkinchi tomondan, polisemiya bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashda, uchinchi tomondan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.

⁷⁹ Yo'ldoshev B. Ko'rsatilgan dissertatsiya avtoreferati. 31b.

⁸⁰ Molotkov A.I. Osnovi frazeologii russkogo yazika.-s.62-102.

11. Tilshunoslikda frazeologizmlarning leksik tarkibi barqaror, o'zgarmas, turg'un deb talqin etilib kelindi. Ammo kuzatishlar natijasida ularning leksik tarkibi nutq jarayonida turli o'zgarishlarga uchrashi mumkinligi aniqlandi. Bunday o'zgarishlar, birinchidan, dialektal frazeologizmlar komponentlari ifodalagan tushunchalar, voqea-hodisalarning eskirishi natijasida uning biror komponenti yangisiga almashtiriladi, ikkinchidan, umumtil frazeologizmlarning mantiqiy asosiga, sheva vakillarining qanday maqsadni ko'zlaganligiga ko'ra, individual frazeologizmlar yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent: O‘zbekiston, 1998, B:19.
2. Avaliani Yu.Yu. Teksty leksii po komparitivno sopastavitelnoy frazeologii iranskix yazykov. Samarkand, 1978. s.14-15.
3. Amosova N.N. Selostnom znachenii idiom// Issledovaniya po angliyskiy filologii M.1947. s.14.
4. Begmatov E.A. O‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. Toshkent:Fan.1985,B:15.
5. Berdiyrov H., Rasuloa R., Yo‘ldoshev B. O‘zbek frazeologiyasidan materiallar. Samarqand,1983.
6. Vinogradov V.V. Osnovnye ponyatiya russkoy frazeologii kak lingvisticheskoy distipleo‘.M..L.1947,s.14.
7. Gvozdarov Yu.A. Osnovy russkoy filologii.Rastov na Donu,1977,s.12.
8. Isaev A. Semanticheskie frazeologizmy uzbekskogo yazyka-Avtoref.dis.kand. filol.nauk,Tashkent,1977.
9. Yo‘ldoshev B.Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. Avtoref.filol.fan doktori.Toshkent:1993.36b.
10. Mamatov A.E. Antonimiya asosida frazeologizmlarning shakllanishi //O‘zbek tili va adabiyoti. 1998,8-son.B:56-58.
11. Mamatov A.E. O‘zbek tilida frazeologizmlarning struktural o‘zgarishi//O‘zbek frazeologiyasining dolzarb masalalari (ilmiy maqolalar to‘plami)-Toshkent:1990,B:17-25.
12. Muratov S.N.Ustoychivye slovosochetaniya v tyurkskix yazykax.M.1961.s.130.
13. Pinxasov YA.D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili //Leksikologiya va frazeologiya.- Toshkent:1969.B:59-65.

14. Rafiyev A.R. Strukturno-funksionalnye svoystva frazeologicheskix edinitz uzbekskogo yazyka. Avtoref. dis...kand. filol. nauk.Tashkent1982.
15. Raxmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari.Toshkent:Fan,1965.
16. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeolgik lugati. Toshkent: Fan.1992.
17. Raxmatullayev Sh. Leksikologiya bilan frazeologiya // Hozirgi o'zbek adabiy tili.- Toshkent:1992.
18. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi.- Toshkent:Fan.1992.
19. Reshetov V.V., Sh.Sh.Shabduraxmonov. O'zyuek dialektologiyasi. Toshkent: O'qituvchi.1972.
20. Ruzikulova M. Idiomatika uzbekskogo yazyka. Avtoref. dis... kand. filol. nauk. Samarkand,1965.
21. Sodiqov S. Ruscha-o'zbekcha lug'at.-Toshkent:Fan, 1972.
22. O'zbek shevalarining leksikasi.-Toshkent:Fan, 1992.
23. Sodiqova M. Ruscha-o'zbekcha frazeologik lug'at.-Toshkent: Fan.1983.
24. G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni (Ona tili o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma).Toshkent. O'qituvchi.1995,B:6.
25. Hojiyev A., Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tili va uni o'qitishning aktual masalalari//O'zbek tili va adabiyoti.1992,5-son.
26. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik. 11,A-R - Moskva: «Rus tili» nashriyoti.1981.
27. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik. 11,S-X - Moskva: «Rus tili» nashriyoti.1981.
28. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik. 11,S-X - Moskva: «Rus tili» nashriyoti.1981.
29. O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh tomlik 1-U - Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi 2006-2008.